

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI

MAMATOVA ZIYODA RAVSHANOVNA

Turli tizimdagi tillarda modallik kategoriyasini ifodalovchi vositalar
(ingliz va o‘zbek tillari materiallari misolida)

5A111401 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha magistr
darajasini olish uchun yozilgan
Dissertatsiyasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent T.Umirzakov

Andijon – 2018

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Modallik falsafiy konsept sifatida	10
1.1. Falsafa fanida modallik kategoriyasining rivojlanish tarixi	10
1.2. Hozirgi mantiq ilmida modallik kategoriyasi	16
Birinchi bob bo'yicha xulosa	25
II BOB. Modallik universal lingvistik hodisa sifatida	27
2.1. Tilshunoslikda modallik nazariyasi	27
2.2. Tilshunoslikda modallikni ifodalovchi vositalar	44
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	58
III BOB. Turli tipologik tizimga ega bo'lgan tillarda modallikning ifodalanishi	60
3.1. Ingliz tilida modallikni ifodalovchi vositalar	59
3.2. O'zbek tilida modallikni ifodalovchi vositalar	92
3.3. O'quv muassasalarida modallikni o'qitish bo'yicha metodik tavsiyanomalar	102
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	117
UMUMIY XULOSA	119
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	121

KIRISH

Qariyb bir asrlik mustabid tuzumidan so'ng, mustaqillik bizga cheksiz imkoniyatlar eshiklarini ochib berdi. Hayotimizning har bir jabhasida o'sish, rivojlanish yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu yillarda ilm-fanga katta e'tibor qaratildi. Yoshlar ilm salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlay olishiga ko'mak berish, ularda innovatsion g'oyalarni uyg'otish uchun ko'plab qonun va qarorlar qabul qilindi va bu jarayon tinmay davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va amalga tadbiq etildi. Uning tarkibida chet tillarini o'qitishning mukammal tizimi belgilab berildi. Ushbu me'yorlar fan rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yil 12-dekabrdagi 1875-son qaroriga ko'ra chet tillari o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratish haqidagi qarori katta burilishga sabab bo'ldi [3]. Tilning ichki imkoniyatlarini egallash, milliy ma'naviyatni takomillashtirish va uni yoshlar ongiga singdirish alohida ahamiyat kasb etadi. "Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash"[1.17]ga katta e'tibor qaratilmoqda.

"Hozirgi davrda chet tilini o'rganish va o'qitish katta e'tibor kasb etmoqda. Bu, albatta, bejiz emas. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan davlatimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning naqadar muhimligi mubolag'a emas, zero xalqimiz o'zining buyuk kelajagi chet ellik sheriklar bilan o'zaro bog'liq ekanini juda yaxshi biladi.... O'zbekiston jamiyatining milliy xususiyatlariga asoslangan va insoniyat qadr qimmatiga mos keluvchi, chet tilini tezroq o'rganish metodini ishlab chiqishimiz kerak" [2].

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni (2002 yil 20 fevral), Vazirlar mahkamasining " Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2002 yil 4 mart), O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 - sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20- apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ 2909-sonli qarori va boshqa me'yoriy xujjatlar O'zbekistonda ilm-fanni, shuningdek tilshunoslikni rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

2018 yil 5 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ - 3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim muassasalarida yana bir katta qadam tashlanishiga sabab bo'ldi. Ushbu qaror oliy ta'lim muassasalarining xar bir jabhasi masalalarini qamrab olgan, ayniqsa ta'lim dargohlarida chet ellik mutahasislarni amaliy yordam berish maqsadida markazlar ochilishi ingliz tiliga bo'lgan e'tibor yanada rivojlanishidan dalolat bermoqda.

Quyida keltirilgan fikrlarning barchasi chet tillarni o'rganish va o'rgatishga bo'lgan e'tiborni kuchayotganidan dalolat beradi, bu esa ingliz tili yuzasidan yangi ilmiy ishlar olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Insonlar o'rtasidagi eng asosiy aloqa vositasi bu tildir. O'z fikrini aniq va ravshan ifoda qilish, o'z nutqiga nisbatan munosabatini ifodalash uchun modallikni ifodalovchi vositalar muhim sanaladi. Nutqni yanada mukammal bo'lishiga, ta'sirli chiqishiga yordam beradi.

Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o'sadi, bir jarayonning o'zida aql, tafakkur, hayol, xotira va so'z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan

fikrni chuqur tushunishgina emas, balki o'sha fikrni o'z ona tilida mukammal va to'g'ri ifodalay bilish ko'nikmalari ham talab etiladi. Bunga esa faqat ikkala – o'zbek va xorijiy til materiallarini lingvo-tipologik jihatdan chuqur tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Shuning uchun ham ushbu lingvo-tipologik uslub umumiy tilshunoslikda bebaho vosita hisoblanadi. Chunki juda ko'p til materiallarini o'rganilayotgan til ichidagi hodisalarni ona tili ichidagi til hodisalariga taqqoslab ko'rish orqali o'rganish foydali natijalar beradi. Masalan, ingliz tilida mavjud bo'lgan artikllarning ishlatilishini, gaplarda so'z tartibi qoidalarini, leksik-semantik hodisalarni turli tizimdagi tillarda o'rganish yoki tillar va ularning yaruslararo lingvistik kategoriyalarning ifodalanish usullarini tahlil qilish kabi masalalarni tadqiq qilish ma'qul bo'ladi.

Ushbu dissertatsiyada ingliz tilidagi modallikni ifodalovchi vositalar tadqiq qilinib, ularning kelib chiqishi, ma'no kategoriyalari, o'zbek tilidagi muqobillari va tarjima qilish muammolari tadqiq etilgan.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Ushbu tadqiqot ishining mavzusi ilk ilm fan rivojlanayotgan davrlardayoq yuzaga chiqqan. Bu mavzuni ilk bor Aristotel, bizning ulug' allomamiz Abu Nasr Forobiy asarlarida uchratishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot mavzusi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Buning sababi nutqda modallikni anglatuvchi vositalar juda ko'p uchraydi. Ularning ma'nosini tushunish, o'z nutqimizda o'rinli qo'llay olish, adabiyotlarda uchraganda tarjima qila olish qiyinchilik tug'dirmoqda. Nutqda modal fe'llar va modal so'zlar tahlili, semantik xususiyatlari, ular orasidagi o'xshash va noo'xshash taraflari, ularning nutq faoliyatida o'z o'rnida qo'llay olinishi, ingliz tilidagi modal fe'llarning grammatik jihatdan tahlili, o'zbek tilidan tubdan farq qilinishi asosiy muammolardan biridir. Modallik kategoriyasida o'rganilgan manbalarni to'plash, ulardagi ziddiyotlarni aniqlash, kamchiliklarni topib, ularni to'ldirishdan iboratdir. Eng asosiysi, modal vositalarni o'zbek talim yo'nalishlaridagi o'rganuvchilarga samarali va oson yo'l bilan tushuntira olish, ularga doir innovatsion texnologiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida modallik kategoriyasining semantik jihatlarining o'xshash va noo'xshash jihatlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilib chiqish va modallikni ifodalovchi vositalarni ma'no jihatidan, tuzilish jihatidan tahlil qilishdir.

Tadqiqot maqsadi quyidagi vazifalarni bajarilishini taqazo etadi:

- 1) falsafada modallik kategoriyasi tahlili va uning tadrijiy bosqichlari;
- 2) tilshunoslikda modallik kategoriyasini tahlil qilish va misollar berish;
- 3) ingliz va o'zbek tillarida modallik unsurlarini qiyosiy- tahlil qilish;
- 4) ingliz va o'zbek tillarida modallik vositalarini semantik-funksional xususiyatlarini o'rganish va ularni semantik-struktur jihatdan talqin qilish;
- 5) ingliz tilidagi modallikni ifodalovchi vositalarni o'zbek tillariga tarjima qilishdagi muammolar va qiyinchiliklarni tahlil etish;
- 6) ingliz va o'zbek tilarida modallik kategoriyasini o'qitishning samarali usullarini, turli xil innovatsion texnologiyalar asosida darsni tashkillashtirish metodlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tillarida modallikni ifodalovchi vositalarni nutqda qanday ifodalanishini, ularning o'ziga xos jihatlarini, modal iboralar va birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning obyekti. Modallik vositalarini leksik, grammatik, sintaktik, leksik-grammatik xususiyatlari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida antik, qadimgi, o'rta asr va hozirgi zamon ingliz va o'zbek yozuvchilarning asarlaridan olingan matnlar, ingliz va o'zbek gazetalari va jurnallaridagi maqolalar matnlaridan, so'zlashuv jarayonida uchrovchi mavzuga xos dialogik va monologik nutqning ayrim misollari olindi, bunga qo'shimcha qilgan holda, internet saytlardan keltirilgan modallikka oid manbalaridan foydalandik.

Tadqiqotning metodlari umumiy xarakterga ega. Tarixiy metod orqali modal birliklari kelib chiqishi va rivojlanishi o'rganildi, semantik metod orqali

modallikni ifodalovchi vositalarning semantik ma'nolari tahlil qilindi, qiyosiy-tipologik metod orqali ingliz va o'zbek tilidagi modal fe'llar va modal so'zlar qiyoslandi. Shuningdek, tadqiqot metodining asosiy salmog'ini tipologik, semantik va tarjima metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning falsafiy va ijtimoiy asarlari, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim-tarbiyaviy ishlar to'g'risidagi hujjatlar hamda tilshunoslikning umumiy va xususiy nazariyasi, tilshunoslikning modallik kategoriyasi bo'yicha G.V.Kolshanskiy, I.B.Xlebnikova, I.Ilyish, I.Kachalova, V.V.Vinogradov olib borilgan ilmiy ishlari xizmat qilgan, shuningdek o'zbek tilshunos olimlardan professor J.A.Yoqubov, f.f.n. dotsent T.Umirzakov va boshqalarning ilmiy ishlari va asarlari xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Modallik kategoriyasi mavzusida shu davrga qadar juda ko'plab tilshunos olimlar izlanishlar olib borishgan. Ingliz tilshunosligida modal so'zlarga, o'zbek tilshunosligida esa modal fe'llarga alohida bir katta mavzu sifatida yondashilmagan, shu qismlarga e'tiborimizni qaratishga harakat qildik. Modal fe'llar tarixiga nazar tashladik. Ingliz va o'zbek tilshunosligida modal vositalarning semantik, grammatik, sintaktik talqiniga nisbatan kam e'tibor qaratilganligi isboti sifatida tilshunos olimlarning modallik sohasida qilgan tadqiqotlarini ko'radigan bo'lsak, ularning asosiy qismi semantik jihatiga e'tibor qaratgan, biz esa sintaktik tahliliga ham e'tibor qaratdik.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz tilidagi modallikni ifodalovchi vositalarning paydo bo'lish yo'llari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini topish, ularning ahamiyati va qo'llanilishini umumiy tilshunoslik nuqtai-nazardan o'rganish bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga modallik tushunchasiga falsafiy tarafdin ham yondashildi.

Tadqiqotning amaliy qiymati. Ushbu dissertatsiya natijasi "Umumiy tilshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Nazariy grammatika", "Amaliy

grammatika” kabi fanlarni o‘qitishda, tarjimaning amaliy va nazariy masalalarini o‘rganishda, shu bilan birga bu mavzuga oid bo‘lgan gaplar va matnlarni talim muassasalarida, maktab, kollej, litsey va oliy o‘quv yurtlarida o‘rganishning samarali usulda o‘rgatilishiga muhim ahamiyat kasb etishi ishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Mazkur dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlarning alifbo tartibidagi ro‘yxatidan iborat.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasining *kirish* qismida O‘zbekistonda ilm fan sohasiga bo‘lgan e‘tibori, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosi ta‘limga qaratilganligi, kadrlar tayyorlashning shu sohada tutgan o‘rni haqida, davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan e‘tibori, birinchi prezidentimiz I.A. Karimovning soha uchun qilgan yangiliklari xususida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga dissertatsiyaning dolzarbligi, ob‘ekti, maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, izlanish metodlari va boshqa xususiyatlari haqida so‘z olib borilgan.

Ishning birinchi bobi "Modallik falsafiy konsept sifatida" mavzusi deb nomlanib unda modallik so‘zining kelib chiqishi va unga oid falsafiy qarashlar, ilk modallik vositalarining fanga kirib kelishi, ularni tadbiq qilgan olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi “Modallik universal lingvistik hodisa sifatida” nomlangan bobida ingliz va o‘zbek tillaridagi modallik vositalarining semantik, grammatik, sintaktik tomonlari va tarjima qilish masalalari yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Turli tipologik tizimga ega bo‘lgan tillarda modallikning ifodalanishi” nomli bobida ingliz tilidagi modallik kategoriyasini ifodalash usul va vositalari o‘rganildi va o‘zbek tilidagi modallik vositalari ham tadbiq qilindi, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, o‘rganilayotgan mavzu, modallik kategoriyasi, yuzasidan zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘qitish texnologiyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan mashqlar to‘plamlari va grammatika yuzasidan testlar berildi.

Ishning xulosa qismida tadqiq qilingan mavzu yuzasidan erishilgan natijalarni umumlashtirib xulosalarni berib borishga harakat qildik.

Ishning so‘nggida mazkur ishning yoritilishida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, lug‘atlar ro‘yxati va internet manbalari alifbo tartibida berildi.

I BOB. MODALLIK FALSAFIY KONSEPT SIFATIDA

1.1. Falsafa fanida modallik kategoriyasining rivojlanish tarixi

Modallik (lotincha-modalis) "o'lchov", "usul" ma'nolarini anglatadi. Modallik kategoriyasi nutqga nisbatan fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Tilshunoslikda modallik kategoriyasi gapning eng muhim belgisidir, mantiqda esa tafakkur shakli, hukmning muhim belgisidir. Shu sababdan bu ikki yo'nalish bir oqimda uchrashadi. Bu o'zaro munosabatni "Til va tafakkur" tushunchalari orqali tahlil qilinadi. Mantiq ilmida modallik kategoriyasi hukmning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi va predmetning biron belgisini aniqlashtiradi. Modallik mantiqda chin, xato, tasdiq, inkor, shart ma'nolarini anglatib, ular maxsus modal operatorlar orqali ifodalanadi.

Modallik juda keng qamrovli bo'lib, mantiqning ham, tilshunoslikning ham asosiy mavzularidan biridir. Dastlab modallik kategoriyasi va uning semantik xususiyatlari uyg'onish davrining asoschilaridan bo'lgan yunon faylasuflarining asarlarida uchraydi. Sharqda Arastu nomi bilan shuhrat qozongan falsafa fani asoschilaridan bo'lgan Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 yillar) o'zining asarlarida alohida e'tibor bergan. Qomusiy olim nutqdagi fikr va mulohazalarni tizimli shaklda o'rganib chiqib, mantiqiy modallik ta'limotiga asos soldi. Ushbu ta'limotni munozaralar maydoniga olib chiqdi va o'zining shaxsiy mulohazalari bilan zid sillogistika (xulosa chiqarish) jadvalini tuzishga harakat qildi. Aristotel ularni umumiy va ayrim fikr holida "modal tushunchalar bilan bog'lab tushungan " va g'oyalari natijasida asosiy ikkita yirik mantiqiy-lingvistik zaruriyat va mumkinlik modallik kategoriyalari vujudga kelgan. Olim modallik kategoriyasining ma'no-mazmunidan kelib chiqib, uni ikki aspektga ajratadi: obyektiv borliqdagi harakatning amalga oshishi mumkinligi yoki haqiqatda oshmaslik mumkinligi. Bu guruhlash oqibatida ikki holat: biri ish-harakatning amalga oshishi real, ikkinchisida esa ish-harakatning amalga oshishi mumkin emasligini tushunish mumkin.

Aristotelning "Kategoriya" nomli asarida juda ko'plab tushunchalar, asosiy, umumiy, ilmiy tushuncha-kategoriyalar, tilshunoslikning ko'plab muammolarini ochishga harakat qilgan. Dastlab til tushunchalarini, ya'ni kategoriyalarini tadbiq qilishdan oldin, kategoriya so'zining o'ziga tushuncha bergan. U kategoriya mohiyati haqida shunday degan: "Bu eng oliy mantiqiy tushunchalar bo'lib, obyektiv borliqning asosiy, muhim xususiyatlari kategoriyalarda aks etadi va ular asosida boshqa tushunchalar hosil bo'ladi. Ular moddiy dunyo bilan bog'langanligi uchun kategoriyalar tabiat narsalari orasidagi bog'lanish va ularning munosabatini ifodalab gaplarning asl mohiyatini anglatadi." [47.112]

Aristotel alohida predmetlarni (ular asosida predikatlar borligi uchun) kategoriyalar deb qaraydi. Ushbu qarashlariga yondashib 10ta asosiy kategoriyani belgilaydi. Ular quyidagilardir: 1) mohiyat, 2) miqdor, 3) sifat, 4) munosabat, 5) o'rin, 6) vaqt, 7) holat, 8) egalik, 9) harakat, 10) majhullik kategoriyalaridir.

Ushbu kategoriyalarni har biriga alohida to'xtalib, ularga misollar keltiradi. Mohiyat kategoriyasiga hamma otlarni kiritadi va uni ikki guruhga bo'lib tahlil qiladi. Birinchisi, atoqli otlarni alohida ajratadi, ikkinchisiga esa umumiy barcha otlarni kiritadi. Miqdor kategoriyasi qancha?, sifat kategoriyasi qanday?, munosabat -o'zaro munosabat, o'rin kategoriyasi qayerda?, vaqt - qachon?, holat qandaydir vaziyatda, sharoitda, egalik - ega bo'lmoq, bor bo'lmoq, harakat - fe'ning infinitiv shaklida ifodalanishi va eng so'nggisi majhullikda esa ish-harakat bajaruvchisi noma'lum bo'ladi.

Keyinchalik olim qarashlarini ilmiy tahlil qilib, "Metafizika" nomli asarida kategoriyalar sonini uchtagacha qisqartiradi:

- 1."Mohiyat" kategoriyasi - predikat bir xil bo'lgan gaplarda. Masalan: Sher - yovvoyi hayvon, tovuq - parranda
- 2."Holat" kategoriyasi - bir o'rinli predikat gaplarda. Masalan: Anvar uxlayapti, ertaga to'y....
3. "Munosabat" kategoriyasi - ikki o'rinli predikat gaplarda. Masalan: Qor yer yuzini qopladi.

Shunday qilib Aristotel bu uch guruhni asosiy deb biladi, avval alohida ajratib tahlil qilgan kategoriyalarni esa ularga yordamchi deb izohlaydi. Ammo semantik - mantiqiy jihatdan ajratgan har bir kategoriyasi mustaqil ma'noga ega bo'lib, o'zi mustaqil vazifa bajaradi. Aristotel ushbu ilmiy izlanishlari orqali falsafiy, mantiqiy, lingvistik, semantik, modallik kabi kategoriyalar vujudga keldi. Bu tushunchalar esa mantiqda semantik operatorlar orqali, tilshunoslikda esa morfologik va sintaktik usullar bilan ifodalanadi.

Aristotel fanga kiritgan yangiliklaridan so'ng, mantiq'ga, tilshunoslikka va uning bir tarmog'i - modallik kategoriyasiga Stoiklar maktabi a'zolari yanada rivojlantirishga harakat qilishdi. "Mantiq" atamasini so'zlarning ifodalanishi haqidagi fan deb talqin qildilar. Hozirgi zamon mantiq'idagi amaliyotlarning (dizyunksiya va konyunksiya) qoidalarini tushunib yetganlar.

Mantiq ilmidagi ilmiy izlanishlardan tashqari, tilshunoslikda grammatik kategoriyalarga ham tasniflar berishgan. Ular izlanishlari orqali grammatik kategoriyalarida so'z turkumlari tushunchasini aniqlashtirishdi, tilda ifodalovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi talqin qilindi, ot kategoriyasiga o'rta yoki oraliq jins atamasi kiritildi.

Stoiklar Aristotelning 10 ta kategoriyasi o'rniga to'rtta kategoriyani tavsiya etadilar. Ular Aristotel guruhlashtirgan kategoriyalardan xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Ular quyidagilardir: 1) substrat (ega) 2) sifat 3) holat 4) munosabat. Ular bir birlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning g'oyalari asosida kategoriyalar o'zaro bog'lanadi va ular grammatik kategoriyalarni hosil qiladi degan tushunchani anglatishadi.

O'rta asrlar davrida ham modallik mantiq'i rivojlandi. VIII - XVI asrlarda Sharqda, ayniqsa Markaziy Osiyoda fan qaytadan rivojlandi. Ushbu davrning eng yorqin namoyondalaridan biri bu "Ikkinchi muallim" ya'ni Aristoteldan keyingi muallim nomiga sazovor bo'lgan buyuk donishmand Muhammad Abu Nasr Forobiydir. U qadimgi yunon olimlarining fanga kiritgan yangiliklarini Sharqda tarqatdi va ular fikrlariga izoh va qo'shimchalar kiritdi. Qomusiy olim falsafa,

mantiq, tilshunoslik fanlarida chuqur izlanishlar olib borgan. U to'g'ri tafakkur qilishning asosiy tamoyillari: aynanlik, hukmlarning o'zaro zid bo'lmashligi, izchilligi, har qanday xulosaning yetarlicha asoslanganligi kabi muhim mantiqiy masalalarni har tomonlama ishlab chiqdi.

Mutafakkir butun fanlarni alohida-alohida qilib izohlab, ularni guruhlarga bo'lib chiqadi, ular quyidagilar: 1) til haqidagi ilm; 2) mantiq; 3) matematika 4) ilm at-tabiiy va al-ilohiy-tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika 5) siyosat ilmi (ilm al-madaniy -shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi).

Al-Forobiy ilmiy izlanishlari, yozgan asarlari hali-hanuz o'z qadrini yo'qotgani yo'q. Xozirda uning qoldirgan merosi yoshlar bilim olishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'rta asrlarda yashagan G'arb mantiqshunos olimlari ham modallik mantiqiga katta yangiliklar olib kirishgan. Vilyam Okkam, Djon Buridin, Poevdo Skot shular jumlasidandir. Ular modal gaplarning bir-biri bilan uzviy semantik bog'lanishiga va gaplarda fikrning mantiqiy bog'lanish va bog'lanmaslik holatlariga asosiy e'tiborni qaratdilar. O'rta asrlarda modallik mantiqini rivojlantirishda de dicto, de re modal konstruksiyalarini fanga olib kirishgan.

O'rta asrlarda determinizm (predmetning muhim farq qiluvchi belgilarini yoki tushunchaning ma'nosini - uning mazmuni chegaralarini belgilovchi - ta'limot) bilan bog'langan har xil muammolar aristotelcha ruhda talqin qilina boshlandi. Bu qoidalar asosida modal gaplar yo *in sensu composito* (mazmunning bog'lanishi) yo *in sensu divisio* (mazmunning bo'linishi) deb guruhlarga ajratila boshladi. Bunday gaplarning tahlili de dicto (mazmun haqida) va de re (predmet orasidagi munosabat) modal konstruksiyalari deb atalardi.(Knuttila 1984, 150). Ushbu konstruksiyalar modallik mantiq' asosiga aylangan o'rta asrlarda. Modal konstruksiyaga bazi mantiqshunoslar propozitsional qurilma yoki propozitsiya deb qarashdi. J. Yoqubovning fikricha propozitsiya gapning muayyan maqsadiga yo'naltirilgan til birligining invariant qismi bo'lib, u predikatlar bilan uzviy bog'liq holda turlicha semantik tushunchalarni (istak, inkor, chin, xato, real, tasdiq va h.k)

ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu lisoniy birlik gap tarkibida erkin harakat qilib, har doim gapning biror bo'lagining mazmunini saqlagan holda almashish, o'rnida qo'llanishi mumkin [24.22].

Vikersning fikricha, har qanday modallik ikki shaklda (de dicto, de re) paydo bo'lib, boshqalari esa modallikning harakat doirasi, butunlay S (subyekt) ning modallikka mos kelishiga qarashli yoki gapning predikatiga tegishli bo'ladi.

Yan Svetlik esa o'zaro muloqot jarayonini o'rganar ekan, modal konstruksiyani uchta modal komponenti deb ataydi. Ularni quyidagicha izohlaydi: 1) so'zlovchi (dr - dictor) 2) adresat - tinglovchi (Peperseptor) va 3) gapning mazmuni (d- dictum) [47; 290] Ushbu komponentlar gapda uzviy bog'liq bo'lib, o'zaro munosabatlari sintaktik modallikning umumiy modelini tashkil qiladi. Gapning modalligi ushbu komponentlarga bog'liq bo'lib, ularning semantik ma'nolari to'rt xil gap turida - darak, buyruq, so'roq, istak gaplarda ifodalanishi mumkin.

Ya. A. Slinin modal qurilmalarni modal operator deb izohlaydi. Yuqorida keltirilgan de dicto, de re tushunchalarini modal operatorlar deb ataydi va de dicto butunlay gap mazmuniga tegishli, va de re esa faqat predikatga tegishli deb izohlaydi.

Bu modal operatorlarga tilshunoslar ham o'z fikrlarini bayon qilishgan bo'lib, ularni tilshunoslikda "modus - diktum" so'zlari orqali izohlab berishgan.

Shvetsariyalik olim Sh. Balli modallik kategoriyasi yuzasidan bir qator muhim fikrlar bildirgan. "Har qanday eksplisit gap ikki qismdan iborat bo'ladi. Ulardan biri tasavvurni hosil qiladigan jarayonga korrelyativ (uyg'unlashgan) bo'ladi, uni "diktum" deb ataymiz; ikkinchisi fikrlovchi subyekt amalga oshiradigan operatsiyalarga korrelyativ bo'ladi, uni "modus" deb ataymiz. Olimning qarashlarida modusni birinchi o'ringa qo'yadi, usiz gap mavjud bo'lmaydi deb qaraydi. Modal fe'l va modal subyektdan tashkil topgan modus diktumni to'ldiradi. Modallik - gapning asosi, fikr singari u ham so'zlovchi

subyektning faol aqliy faoliyati natijasida yuzaga keladi. Binobarin, agar anglashilgan fikrda modallikning qandaydir bir ifodalanilishi bo'lmasa, uni gap deb atash mumkin emas" [33.25].

V. G. Gak semantik jihatdan gaplarni tahlil qilib, uni diktum va modusga ajratadi. Uning fikricha, diktum - voqelikni aks ettirsa, modus esa so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalaydi [41.23].

T. B. Alisova modus va diktum munosabatlariga katta e'tibor qaratadi. Diktum orqali modal ma'noni tushunsa, modus orqali esa semantik ma'noning berilish yo'llarini izohlaydi. Modus va diktumni eksplisit modallik deb olib, bu modallik ikki hil modus xolatida mavjud bo'ladi: gapirish modusi va subyektivlikning baholash modusi holati. Bu ikkala holat bir-birini inkor qilmaydi, balki ular bir - birini to'ldiradi [47.23].

G'arb uyg'onish davrida ham modallik kategoriyasiga oid ko'p izlanishlar olib borildi. Ulardan asosiysi Antuan Arno va Klod Lanslolarining " Umumiy va mantiqiy grammatika" asaridir. Bu asar ,shuningdek, Por Royalning grammatikasi deb ham yuritiladi. Ushbu asarda grammatika ilmiy bilimlarga asoslangan. Izlanuvchilar uchun nutqning asosiy birligi gap hisoblanib, u mantiqiy hukmni o'z ichiga oladi va uchta atamadan iborat bo'ladi: ega (terre), aniqlovchi (ronde), bog'lama (est) dan iborat bo'lgan. Fe'l gapning o'zagini tashkil etadi.

Por Royal grammatikasi mualliflari grammatikani "nutq sa'nati" deb ta'riflab, nutqga alohida tarif beradilar: "Gapirish insonlar maqsadlarini amalga oshirish uchun belgilar yordamida o'z fikrini ifodalashdir". Bu belgilar yozma bo'lib, ularni birinchi bo'lib yunonlar foydalanishgan. ushbu belgilarni grammatika deb atashgan. "Grammatika" so'zi o'shandan kelib chiqqan.

XVII asrda til tavsifidagi ikki muhim nazariya asosida tilni tartibga solishga xarakat qilishdi. Bunda G. V. Leybnitsni o'rni katta.

1679 yil aprel oyida Leybnits "Umumiy tasnif elementlari" asarida sodda sonlarning xususiyatlarini sinab ko'rish maqsadida izlanishlar olib boradi (bunda gaplarning modallik xususiyatlaridan kelib chiqadi) Uning xizmati shundaki , u

sillogizmlar xaqidagi Aristotel ta'limotiga arifmetik natural sonlar yordamida izoh berdi, shuningdek mantiqda aniq bilim bilan bir qatorda, ehtimollik g'oyasi ham bor ekanligini isbotladi va mantiq ilmida modallik kategoriyasining rivojlanishiga yordam berdi.

Mantiqiy modallik kategoriyasi davrlararo turlicha talqin qilingan:

- 1) Atoqli va turdosh otlar (Aristotel)
- 2) S-P, a R b formulalari
- 3) Maxsus belgilar bilan A B C Q R P M S
- 4) Mantiqiy bog'lovchilar (konyunksiya, dizyunksiya)
- 5) Intensional operatorlar (zaruriyat, mumkinlik)
- 6) De dicto, de re modal qurilma
- 7) Arifmetik natural sonlar - raqamlar (Leybnits)

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, ilk uyg'onish va o'rta asrlarda Sharqda, Markaziy Osiyoda, G'arbda ijtimoiy-falsafiy fikr, ilm-fan qaytadan rivojlana boshlagan. Shu sababdan ushbu davrlar tarixda Sharq va G'arb Uyg'onish davri nomi bilan tarixda katta o'rin egallaydi. Mantiq ilmi asosida modallik kategoriyasiga katta asos bo'luvchi ilmiy izlanishlar olib borildi va mavzu rivojiga asos qoidalarni yaratishdi.

1.2. Hozirgi mantiq ilmida modallik kategoriyasi

Hozirgi zamon modallik mantiqida propozitsional va predikatlar o'rni katta. Bunda propozitsional bog'lanishlar bilan birga modallik operatorlari ham ishlatiladi. Formulalar tarkibidagi bunday operatorlar modallik formulalari deb ataladi. Modal mantiqning semantikasi intensional hisoblanib, u zaruriyat va ehtimollik tushunchalari asosida namoyon bo'ladi. Intensional atamasi biror voqelik ma'nosini, ya'ni uning tushuncha mazmunini anglatadi, ekstensional esa biror predmetning tushunish darajasini anglatadi.

Mantiq ilmida modallik mantiqini ifodalash uchun mantiqiy belgilar, ramzlar, harflar mavjud: 1) mulohazalarning o'zgaruvchi simvollar: -A, B, C, Dlar

hukmlarni ifodalash uchun ishlatiladi 2) individual predmetlarning o'rniga quyidagi kichik harflar: a, b, c,.....x, y foydalaniladi. Har ikkala holatda ham o'zgaruvchilar lotin harfida beriladi. 3) predikatlar uchun qo'llanadigan o'zgaruvchilar ham lotin harflari orqali ifodalaniladi: S, P, R, Q 4) mantiqiy modal operatorlari yordamida:

- 1) $\Diamond$ "mumkin, ehtimol" ma'nolarini anglatadi.
- 2) $\Box$ "kerak, shart" fikrlarini anglatadi
- 3) $\Diamond A$ "A mumkin" deb o'qiladi
- 4) $\neg \Box A$ "A mumkin emas" tarzida ifodalaniladi.
- 5) $\Box A$ "A kerak, shart" deb o'qiladi va boshqalar

Professor Kondakovning fikricha , "modallik mantiq'ida fikrni aniq va ravshan bayon qilishda gaplar orasida qator ramziy belgilar, harflar, raqamlar, modal operatorlar kabi propozitsional bog'lovchilar qo'llanilib, ular har-xil modallik formulalarini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bu mantiqiy jarayonda qo'llanadigan gaplarning hukmlari chin yoki xato, tasdiq yoki inkor bo'lishi mumkin"[47.253]. N. Kondakov modallik mantiq'ining semantik xususiyatlarini va fikrlarni tezroq va soddaroq ifodalash uchun yuqorida keltirilgan turli belgilardan foydalangan.

E. Sidorenko o'z ilmiy ishlarida e'tiborini asosan shart gaplardagi mantiqiy ketma-ketlikka qaratadi. Asosan shartli belgilardan mantiqiy davomiylik formal nazariyasida va mantiqiy shart gaplarning semantikasini ochib berishda keng foydalangan.

Bizning mantiqshunos olimlarimiz ham o'z ilmiy ishlari bilan fan rivojiga katta hissa qo'shmoqdalar. Ayniqsa professor M. Xayrullayev, M. Xaqberdiyev, M. Sharipov va Fayzixo'jayevlar chuqur izlanishlar olib borib, o'z asarlarida mantiq ilmiga, ayniqsa mantiqdagi modallik kategoriyasini tushuntirishga xarakat qilib o'z izoxlarida turli xil ramziy belgilardan foydalanishgan. Mantiqshunos olimlar asosiy e'tiborini gaplarni mantiqiy tahlilida xukmlarga qaratishgan. Ular gaplarning mantiq'i bilangina cheklanib qolmasdan, predikatlar mantiq'iga ham

qaratishgan. Gaplarning mantiqiy tuzilashlarini ikki yoqlama tahlil qilib, birinchidan, predmet nomlarini ifodalovchi belgilar tahlil qilinsa, ikkinchidan, predikatlarni anglatuvchi belgilar tushuntirib beriladi.

Ya. Slinin ham modal mantig'ini nazariy jihatdan rivojlantirdi. U hozirgi zamon mantig'ida modallik tushunchasi propozitsional va predikatlar doimiyligining maxsus hisoblanuvchi formulalarni tashkil qilgan belgilarni tushuntirib berishga harakat qilgan. U gaplar tahlilida modallik mantig'ini tushuntirishda "zarur-kerak", "ehtimol-mumkin" ma'nolarini ifodalovchi shartli formulalarni qo'llagan.

Modallik mantig'ida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, turli ramzlar, shartli belgilar, semantik operatorlarning ketma-ket joylashishi, ifodalanishi va bir-birini almashtirishidan modallikni tushunishimiz mumkin. Ushbu belgilar predmet va predikatlarning yonma-yon joylashishi va turli xil semantik ma'nolarni ifodalashini anglashga yordam beradi.

Modallik mantig'ini rivojlanishida Robert Feysning ham xissasi katta. U modallik mantig'ini asosan zaruriyat va ehtimol tushunchalari orqali ifodalaydi. Olim modal gaplarni tahlil qilib, uch asosiy guruhga ajratadi: 1) Xususiy modallik - bu modallik darajasi nolga nisbatan yuqori 2) tasdiq modallik - bu modallikda inkor ramzlarning soni nolga yoki juftga teng 3) inkor modallik - bu modallikda inkorlar soni juft emas, ya'ni, toqdir

Davrlar osha turli izlanishlar orqali modallik mantig'i taraqqiyot darajasiga ko'ra klassik va noklassik mantiqqa bo'linadi. Modallik mantig'i - xozirgi mantiq yo'nalishida "zarur, kerak, shart" va "ehtimol-mumkin" funktoirlari bilan kelgan gaplarda mantiqiy tahlil qilinadi. Bunday tushunchani anglatgan gaplar bevosita tafakkur bilan bog'langan bo'lib, ikki turdagi chin mulohazani bayon qiladi. Ulardan biri universal klassik xarakterga ega bo'lsa, ikkinchisi noklassik xususiyatiga ko'ra modallik ma'nosini bildiradi.

Noklassik mantiq - matematik mantiqning bir yo'nalishi va falsafiy oqim bo'lib semantik xususiyatga ega. "Noklassik mantiq g'oyalarning mohiyatini

mantiqda ko‘rinishini nihoyatda chuqur va murakkab, klassik predikatlar hisobining sodda kichraytirish va ko‘p ma’noli mulohazalarning bayon qilinishini, ular hamma mantiq strukturasini qaytadan tuzish mohiyatini ochib beradi" - deydi

N.Tavenets. Kondakov esa noklassik mantiq bo‘yicha ilmiy izlanish propositsional bog‘lanish gaplarning tasdiq va inkorlarini boshqacha tushunish imkoniyatini beradi deydi.

J. Yoqubov esa noklassik va klassik mantiqni farqlab shunday deydi: "Modallik mantiqning rivojlanishida bu oqim o‘zining semantik xususiyati bilan, ya‘ni, klassik mantiq o‘zining universalligi bilan xarakterlansa, noklassik mantiq - falsafiy yo‘nalishdagi bir oqim sifatida o‘zining sof modallik xususiyati bilan klassik mantiqdan farq qiladi" [24.54].

Hozirgi mantiq ilmida modallik yana quyidagi guruhlariga bo‘linadi: mantiqiy va tabiiy, mutlaq va nisbiy, de dicto va de re modalligi.

Mantiqiy va tabiiy modallik deb guruhlanishga sabab Leybnitsning ilmiy asoslaridadir. Olim chin mantiq bilan chin dalilni farqlashga urinib ko‘rgan. Birinchisi voqelikni to‘gridan-to‘gri o‘rganishni talab qilmaydi, ikkinchisida esa obyektiv borliq, voqelikni e‘tiborga olmasdan, ya‘ni o‘rganmasdan chin hukmni aytish mumkin emas. Bunga misol tariqasida eksperiment tajriba qonunlarini kiritish mumkin.

Mutlaq va nisbiy modallikda “zarur-kerak”, “ehtimol-mumkin” operatorlari beriladi. Ular mazmun jihatdan bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan: “Imtihon uchun anketani to‘ldirishingiz shart”, “Balki, yaqin orada javob xati kelib qolar”.

Nisbiy modallik tarkibida ham zarur – mumkin operatorlari bo‘lib, nutqda ma‘lum vo‘qelik bilan bog‘lanishi shart, ya‘ni, ish-harakat amalga oshishi uchun ma‘lum bir shart qo‘yiladi. Masalan: “Xar oyda oylik ma‘lumot topshirishingiz shart, aks-holda oylik maoshingiz to‘xtatilishi mumkin”.

Demak, mutlaq va nisbiy modallik orasidagi farq turli ma‘nolarning ifodalanishidir. O‘rta asr mantiqshunos olimlari bu modallikni de dicto(voqelik) va de re (predmet) deb guruhlariga bo‘lib ham o‘rganishgan. Fikr ifodalanayotgan

gapdagi asosiy g'oya mazmun de dicto orqali, ular orasidagi o'zaro sintaktik munosabat, ya'ni gaplar orasida o'zaro ichki munosabatlarni de re orqali ifodalanadi. Masalan: "Biz tayyormiz. Biz tayyor edik. Ehtimol, tez orada tayyor bo'lib qolarmiz. Albatta vaqtga biz tayyor bo'lib turamiz." Misollarda bitta subyekt (biz) haqida gap ketayapti, ushbu subyekt de dicto, grammatik munosabatlar esa de re deb ataladi. Yuqoridagi misollar bir-biri bilan uzviy xolda tahlil qilinadi, ma'no jihatdan bir-biriga yaqin, shakl jihatdan esa farq qiladi.

Mantiqiy modallikni semantik xususiyatlari har doimo olimlarning diqqat e'tiborida bo'lgan. Ikki xil sistema orqali tahlil qilishgan: 1) aksiomatiklar hisobi ko'rinishida (belgilar, ramzlar, shartli belgilar va o'zgaruvchilar) 2) aniq matritsalar (algebrik jadval) soni yordamida.

Hozirgi zamon mantig'ida modal sistemalar uch asosiy guruhga bo'linadi: Lyuis, Akkerman va Lukasevich modal mantig'i. Ushbu tizimlarning xar biri o'ziga xos xususiyatga ega.

Lyuis Klarens Irving (1883-1964) mantiq ilmiga "implikatsiya" atamasini kiritgan olim bo'lib, u o'zining "Ramziy mantiq ocherki" va boshqa asarlarida qat'iy implikatsiya tushunchasini bildiruvchi xarflar, raqamlar va ramzlarni tekshirdi. Mantiqiy zaruriyatni ifodalaydigan va ifodalamaydigan bog'lovchilarni farqlab berdi.

Implikatsiya - mantiqiy operatsiya bo'lib, u "agar.....unda" bog'lovchisiga mos keladigan mantiqiy bog'lovchi vositasi bilan ikki mulohazadan murakkab xukm tuzadi. Ushbu atamaning fanda shartli belgisi $A - B$ "agar.....unda" deb berishimiz mumkin. Masalan: "Agar ular yaxshi natijaga erishsa, unda keyingi bosqichga o'tishsa kerak".

Modallik mantig'ida implikatsiya to'rt sinfga ajratiladi:

1) Qat'iy implikatsiya. Bu turga shart xukmi bilan kelgan gaplar kirib, ular mantiqda $A \rightarrow B$ formulasi bilan beriladi.

2) Kuchli implikasiya. Xukmning ijrosi qat'iy qoida asosida amalga oshiriladi. Masalan: "Kirish imtihonlarida abituriyentlar xech qanday yordamchi vositalardan foydalanmasliklari lozim." Uning shartli belgisi " $\square A$ "

3) Formal implikasiya $A \supset B$

4) Moddiy implikasiya. $A \supset B$

Qat'iy implikasiya asosan "mumkin", "mumkin emas", "kerak" kabi so'zlar orqali ifodalaniladi va aksiomalar sxemasidan iborat bo'ladi. Ushbu gaplar ma'lum bir modal sistemani tashkil qiladi.

Sistema bu aynan bir mavzu yuzasidan aloqada bo'luvchi va o'zaro munosabatga kirishuvchi, birlikni tashkil etuvchi elementlar majmuidir.

Modallik mantiq'ida esa bu so'z aksiomalardan iborat mulohaza va xukmlar mazmuni tushuniladi. "kerak, zarur, mumkin, ehtimol" kabi so'zlarni modal sistemani mantiqiy elementlariga misol qilishimiz mumkin.

Lyuising asarlarida modal sistemalar haqida alohida to'xtalgan bo'lib, ularni uch guruhga bo'ladi; 1. Formal sistemaning klassik modalliklari 2. "Qat'iy implikasiya" nazariyasini tuzish rejalari. 3. Modallik mantiq'ini boshqa sistemalardan farqlash xukmi.

Lyuising sistemalaridagi modal operatorlar "kerak" va "mumkin" tushunchalarini berib, mazmun jihatidan farq qiladi.

Akkerman Lyuising ilmiy izlanishlarini tahlil qilib, o'z sistemasini yaratishga xarakat qilgan. Lyuising sistemasidan farqli o'laroq zid va qat'iy implikasiya yo'q. Mantiqiy davomiylik uning sistemasida birlamchi xisoblanib, uni kuchli implikasiya deb ataydi. Olim modallikni kuchli implikasiya orqali aniqlanadi deb e'tirof qiladi. Mantiqiy ketma-ketlik ham kuchli implikasiyaga tengdir deb fikr yuritadi. "mumkin", "neytral - betaraf" so'zlari orqali ifodaladi.

Har bir xukmni "xukm yo chin", "yo xukm yolg'on", "yo xukm betaraf" deyish mumkin. Olim uch ma'noli mantiq asosida modallik mantiq'i sistemasini yaratdi. Ushbu sistema xukmlarning mantiqiy operatsiyalari ilmiy tahlil qilinib, "mumkin", "mumkin emas" ma'nolarini ifodalaydi.

Modallik mantiq'ida borasida R. Karnam ilmiy izlanishlari muhim o'ringa ega. Modallik mantiq'iga bag'ishlab "Ma'no va zaruriyat" (1969) nomli asar yozgan va unda "kerak-zaruriyat", "mumkin", "mumkin emas" kabi modal tushunchalarni ilmiy tahlil qilib beradi. Olim N belgisini "zaruriyat" belgisi deb kiritadi. Shuningdek, zaruriy implikasiya va zaruriy ekvivalent iboralaridan foydalangan, va shu sistemaga ekstensional va intensional tushunchalarini kiritadi. Ekstensional bu-tushuncha hajmi va obyekt (denotat, referent), intensional esa- ma'no-mazmunni ifodalaydi. Olim modallik mantiq'ini tushuntirishda, asosan tasdiq va inkor gapni semantik jihatdan tahlil qilgan. "Zarur" tushunchasini moddiy olamga xos tushuncha, "mumkin"ni esa moddiy olamdagi haqiqat tushunchasi deb izohlaydi. "Kerak" va "mumkin" mantiqiy kategoriyalar bo'lib, o'z ma'nosiga egadirlar va boshqa so'zlar bilan aynan bir ma'noga teng bo'lmaydi. Karpen fikricha "kerak" bu chin tushuncha bo'lib, moddiy olamning o'ziga xos xususiyatning qo'shilishidan iborat deb biladi.

J.A. Yoqubov fikricha ""kerak" (zarur) va "mumkin" (ehtimol) tushunchalarini bir-biriga o'xshatish, chin tushunchalarini umumiylik (bir xillik) va o'ziga xos xususiyatlari bilan qo'shilishi mumkin emas. Bu ikki tushuncha hech qachon modallik xususiyati bilan hech qachon bir biriga mos kelmaydi, chunki ushbu tushunchalar ikki xil ma'noni anglatadi, turli mantiqiy yo'llar bilan ifodalanadi" [24.43].

Bizning fikrimizcha xar bir olimning qilgan ilmiy ishlari modallik mantiq'ida o'ziga xos o'ringa ega. Yuqorida tahlil qilingan mantiqiy operatorlar, fanga yangi kirib kelgan atamalar mavzuni yanada oydinlashtirishga yordam bergan. "Kerak" xukmning qat'iyligini, "mumkin" esa xukmni yechilishiga undan boshqa xam yo'llar bor ekanligini ifodalaydi. Semantik jihatdan bu ikki so'z tubdan farq qiladi.

Mantiq ilmida modallik, hukmning modallik bo'yicha bo'linishi juda munozarali mavzudir. Bu bahs har doimo olimlar diqqat e'tiborida bo'lib

kelmoqda. Aslida, hukm o'zi nima? Modallik kategoriyasi bilan qanday bog'liqlik jihatlari mavjud?

Bizning xar bir chin yoki xato fikrimiz voqelikdagi narsa va hodisalarning o'zaro munosabati borligi va bu voqelik elementlari orasidagi bog'liqlikning doimiyligi, tasodifiyligi haqida so'z borganda hukm shaklida ifodalanadi. Hukm tafakkurning asosiy shakli bo'lib, u narsa va hodisalar, ularning turli belgilari, xususiyat va munosabatlari haqidagi tasdiq yoki inkorni ifodalaydi [24.43].

Hukmning asosiy belgisi tasdiq yoki inkorni anglatishidadir. Agar hukm o'ziga xos tasdiq yoki inkorni ifodalamasa, u hukm bo'la olmaydi. Har qanday hukm zahirida ma'lum bir ma'no yotadi. Masalan: "Talabalar to'lov kontraktini 50%ini to'lamaganlarigacha o'quv mashg'ulotlariga qo'yilmaydi." Ushbu misolda inkorni belgisi - "o'quv mashg'ulotlariga qo'yilmaydi" deb darslarga qatnashish inkor qilinmoqda. "O'zbekiston barchamizning ona - vatanimizdir" - ushbu misolda vatan qanchalik muqaddas ekanligi tasdiqlanmoqda.

XIII asr o'rtalarida Vilgelm Shervud modallikni 6 hil shaklini izohlab bergan: "chin", "xato", "ehtimol", "mumkin emas", "tasodifiy", "kerak". Keyinchalik esa bu shakllar asosiy uch guruhga birlashtiriladi: "zarur", "mumkin", "mumkin emas". Kondakov ilmiy ishlarida bu shakllarni "chin", "xato", "mumkin emas" deb nomlagan.

XVIII asrda modallik belgilarini uch xil hukm guruhiga bo'ladi: 1) assertorik (voqeyiy, tasdiq), 2) apodiktik (zarur, kerak), 3) problematik (mumkin, ehtimol) hukm. Predmetning qanday xususiyatga ega yoki ega emasligi haqida ma'lumot berilishi bu hukm deyishimiz ham mumkin. An'anaviy formal mantiqda modallik xususiyati bilan hukm uch guruhga bo'linadi: a) ehtimol b) voqeyiy c) zaruriy hukmlar.

Murakkab hukmning modallik bo'yicha bo'linishi va ularning mantiqiy formulalari. Hukm tarkibida birdan ortiq subyekt va predikat bo'lsa, u murakkab hukm deyiladi. Ushbu murakkab hukmlar mantiqiy jihatdan uch guruhga bo'linadi: qo'shuvchi hukm, shartli hukm va bo'linuvchi hukm.

Qo'shuvchi hukm ikki yoki undan ortiq sodda hukmning "va" teng bog'lovchisi yordamida qo'shilgan murakkab hukm qo'shiluvchi hukm deb yuritiladi. Masalan: Bobur intiluvchan bola va sportda ham ilg'or. Ular bazmga borishdi va uyga kech qaytishdi.

Murakkab qo'shiluvchi hukm tilshunoslikda tahlil qilinganda bog'langan qo'shma gap turkumiga kiradi. Qo'shma gapni tashkil etgan qismlar mazmunan o'zaro jips bog'lanadi, biri ikkinchisiga bog'liq bo'ladi. Bunday qo'shuvchi hukm to'g'ri bo'lishi uchun ularning tarkibidagi sodda hukmning har biri chin bo'lishi zarur.

Shartli hukm asos va natija bog'lanishini shartli ravishda ifodalaydi. Shart predikati boshqargan gap qurilmalarining ergash gap bo'lishi uchun tarkibida o'z egasi bo'lishi shart, shundagina predikativ munosabat, hukm kelib chiqadi. Masalan: Agar B1 darajaga erisholsang, universitetga kirish imtihonlariga ingliz tili bo'yicha 100% ballga ega bo'lasan.

Ayiruv yoki dizyunktiv hukm. Ayiruv munosabatini ifodalovchi murakkab mulohazalarda qismlaridan anglashilgan mazmun-voqea, hodisa, holatlarningbiri ro'y berib, ikkinchisi ro'y bermaydi, ammo ro'y berishi ketma-ket bo'ladi. Hukm tarkibidagi bog'langan sodda hukmlar bir-biri bilan mazmunan bog'lanmaydi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ayiruv munosabatini ifodalash uchun ayiruv bog'lovchilari "yoki", "yo", "goh", "dam", shuningdek leksik so'zlar "bazan", "hali", "bir" yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra hukmlarning modallik bo'yicha bo'linishining umumiy qisqa xulosalarga kelishimiz mumkin:

Hukm tafakkurning asosiy shakli bo'lib, u narsa va xodisalarning belgisini, xususiyati va munosabatlarini tasdiq yoki inkor shaklidagi fikrdir.

Hukm gapning tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Sodda hukmda bitta subyekt va predikat bo'ladi. Murakkab hukmda ikki yoki undan ortiq subyekt va predikat bo'ladi.

Sodda hukm modallik bo'yicha ikkiga bo'linadi: obyektiv modallik va mantiqiy modallik. Obyektiv modallikka voqeyiy, zarur va ehtimol hukmlar kiradi. Mantiqiy modallikka problematik va ishonchli hukm kiradi.

Murakkab hukm modallik bo'yicha uch guruhga: qo'shuvchi hukm, shartli hukm va ayiruvchi hukmga bo'linadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Modallik mantig'iga bag'ishlanagn ushbu bob bo'yicha xulosalarimizni umumiy qilib shunday deyishimiz mumkin:

1. Mantiqiy jarayonda tezroq, aniq va ravshan bayon qilinib, chin, real, tasdiq, tasodif, xato, inkor, mumkin, zarur, ehtimol, mumkin, emas, shart kabi modal ma'nolarni anglatilishidir. Ushbu jarayonlar bir qancha ramziy belgilar, harflar, formulalar, raqamlar, mantiqiy bog'lovchilar, modal operatorlar orqali tushuntiriladi va predmetlar orasidagi yuqorida keltirilgan munosabatlarni anglatadi.
2. Ta'kidlab o'tilgan til belgilari modallik mantig'i tizimini tashkil qiladi.
3. Modallik mantig'i mantiq fanida 5 ta yo'l bilan ifodalaniladi:
 - a) ramziy harflar
 - b) modal operatorlar
 - v) mantiqiy bog'lovchilar
 - g) mantiqiy belgilar
 - d) kichik va katta lotin harflar bilan.
4. Modallik kategoriyasini ifodalashda individual predmetlarning o'rniga kichik lotin harflar, predikatlarni tushuntirishda esa quyidagi katta harflar S, P, R, Q qo'llaniladi.
5. Modallik kategoriyasi dastlab mantiq ilmida paydo bo'lib, keyinchalik tilshunoslar diqqat markaziga aylangan. Bu mavzu keng qamrovli bo'lib, ikkala sohada ham o'z o'rniga ega. So'zlovchining butun borliqqa bo'lgan munosabatini turli hil hukmlar orqali ifodalanilishi taffakurning ham, tilning ham asosiy vazifasidir.

II BOB. MODALLIK UNIVERSAL LINGVISTIK XODISA SIFATIDA

2.1. Tilshunoslikda modallik nazariyasi

Ilmiy adabiyotlarda modallik haqida turli fikrlar mavjud. Modallik gapni shakllantiruvchi kategoriyami yoki gapga to'liq xos bo'lgan predikativlikning tarkibiy qismi-mi? – bu haqda tilshunoslar turli xil fikr bildiradilar. V.Gak modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim komponenti va gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati ekanligini aytadi [41.16]. Rasulovning izohicha ma'lum konstruksiyaning gap bo'lib kelishi uchun shart bo'lgan predikativlik gapda ifoda qilingan fikrning real borliqqa bo'lgan munosabatini bildirib, turli konstruksiyadagi gaplarda turlicha ifoda qilinadi. Modallik esa uning tarkibiy qismidir [24.31]. V.G.Admonining fikricha, modallik predikativlik bilan bevosita bo'lmay, u so'z birikmasiga ham xos [28.40]. Rasulov yana, yuqoridagi fikrni davom ettirib, modallikni sintaktik mayl kategoriyasiga tenglashtiradi. Shapiro modallik haqida har qanday gapni harakterlovchi zaruriy belgi predikativlik emas, modallikdir deb hisoblashga hamma asos bor, modallik predikativlikka nisbatan keng tushuncha deydi [24.31].

Ardentev ham: “Nima uchun mazmunning real borliqqa munosabatini predikativlik deyish kerak?” degan savol beradi: buning predikat bilan, predikativlik munosabat bilan hech qanday aloqasi yo'qligini aytadi. I.Raspapov modallik haqida fikr yuritib, sof grammatik ma'nodagi kategoriya sifatida hech qanday modallik mavjud emas, deydi [53.10]. Uning fikricha, modallik kategoriyasi haqida emas, balki gapning modal sifati haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'ladi. G.P.Lomtev ham bu kategoriyaga nisbatan huddi shunga o'xshash fikr yuritadi. Uning fikricha, modal harakteridagi grammatik kategoriya “bir grammatik kategoriya emas” balki bir sistemani tashkil etadi [49.12].

Modallik haqida turlicha fikrlar bildirish hozir ham davom etmoqda. Uni ta'riflash juda qiyin. Bu haqda xulosa chiqarish undan ham qiyin bo'lib qolmoqda.

Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Uni ifoda etuvchi vositalar ham rang-barangdir. Bu haqda keyinroq so'z yuritsakda hozir modallik haqida yuritilgan fikrlar bilan tanishishni davom ettirsak.

A.Ahmedov modallikni juda keng va murakkab tushuncha ekanligini, uni uch planda o'rganish:

- a) gap mundarijasini voqelikka munosabati planida;
 - b) so'zlovchining gap mundarijasiga munosabati planida;
 - c) subyekt-belgining egasi bilan belgi orasidagi munosabat planida;
- kerakligini aytib o'tadi **[6.43-44]**.

Vinogradovning izohicha, modallik predikativlik kategoriyasining eng to'g'ri, doimiy, bevosita ifodasi gap modalligidir, predikativlik nutqni borliqqa bo'lgan munosabatining o'ziga xos belgilarini ifoda qiladi **[39.205]**.

O.S.Ahmanovanning fikricha, modallik kategoriyasi ostida so'zlovchining bayon mazmuniga munosabati va bayondan ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati tushuniladi va bu hodisa turli grammatik va leksik vositalar yordamida ifodalanadi **[32.201]**.

D.E. Rozental va M.A.Telenkovalar modallikni grammatik–semantik kategoriya sifatida ko'rsatadi va so'zlovchining bayonga munosabati va uning obyektiv borliqqa munosabatini bahosini modallik sifatida izohlaydi **[54.63]**.

M.V.Lyapon modallik funksional – semantik kategoriya ekanligini bayonning borliqqa turlicha munosabati va xabar berilayotgan narsaga turlicha subyektiv bahoni bildirishni ko'rsatadi **[48.198]**.

M.V. Panov modallik kategoriyasi ostida so'zlovchining u yoki bu voqea – hodisaga munosabatini tushunadi **[64.175]**. A.Hojiyev modallik tushunchasi haqida so'zlovchining ifodalayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik – semantik kategoriya deydi. Modallik kategoriyasi deganda esa fikrning voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'nolarning ifodalash sistemasi ekanligini ta'kidlaydi **[23.55]**. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo'jayevlarning fikricha modallik gap mazmunining so'zlovchi

nuqtayi nazaridan obyektiv borliqqa munosabatini yoki soʻzlovchining gap mazmuniga munosabatini bildiradi [17.87].

Umuman modallik tushunchasi ostida soʻzlovchining bayon mazmuniga munosabati. bayon mazmunining borliqqa munosabati, soʻzlovchining borliqqa munosabati tushuniladi. Biroq uchinchi koʻrinishni ikkinchisi bilan birlashtirish mumkin. Chunki bayon mazmunining borliqqa munosabati, ayni paytda, soʻzlovchining borliqqa munosabatini ham ifodalaydi. Soʻzlovchi borliqqa munosabatini bayon mazmuni asosida koʻrsatadi [20.96].

Gapning asosiy belgilaridan biri predikativlikdir. Modallik – gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir. Gap orqali soʻzlovchi biror voqea, hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda roʻy berishi, realligi yoki norealligi, xohishi yoki noroziligi kabi munosabatlarni ham ifodalaydi. Gap maʼlum fikrni anglatishi bilan birga, bu fikrga soʻzlovchining munosabatini ham aks ettiradi. Soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini ifodalovchi maʼnoga modal maʼno deyiladi .

Bunda anglatilayotgan fikrning aniqligi, chinligi, shartliligi kabilar obyektiv voqelikka qiyosan baholanadi. Shularga koʻra, modallik soʻzlovchining voqelikka subyektiv – obyektiv munosabatini ifodalaydi. Modal maʼnolar morfologik, sintaktik va leksik usullar bilan ifodalanadi. Bu usullar oʻzaro zich bogʻlangan [19.255]. Gapda nisbiy tugal fikr mavjud boʻladi, shuning uchun ham unda modallik nisbatan tugal namoyon boʻladi.

Gapda modallik grammatik – semantik kategoriya sifatida koʻrinadi. Chunki gap ichida grammatik aloqalar amal qiladi. Ayni vaqtda semantik munosabatlar ham grammatik munosabatlar bilan parallel ravishda yuzaga chiqadi. Bunday munosabatlarning yuzaga kelishi oʻz – oʻzidan modallikning ifodalanishiga olib keladi.

Modallikning grammatik – semantik planda tadqiq qilinishi A.Nurmonov taʼkidlaganidek, turli sathlilikni keltirib chiqaradi.

Modallik tafakkur shaklida hukmning muhim belgisi sifatida mantiqiy kategoriya hamdir **[15.81-87]**. Biroq gapdan anglashilgan hukm modallikni to'la ifodalay olmaydi. Chunki presuppozitsion aspekti bunga yo'l qo'ymaydi. N. I. Jinning ta'kidlashicha, matndan ajratib olingan gap mazmunini saqlay olmaydi **[43.56]**.

Gap nutq birligidir. Nutq sistemasi birliklari aslida turli tipdagi til birliklari tabiatida mavjud bo'lgan o'zaro birika olish imkoniyatining millionlab kishilar tomonidan yuzaga chiqarilishi natijasida voqea bo'ladi **[14.24]**. Shuningdek, butun bir sistema uni tashkil etgan komponentlarga aktiv ta'sir etadi, o'z tabiatiga mos holda ularni qayta shakllantiradi **[31.98]**. Shuning uchun ham matndan ajratib olingan gap matn sistemasida "qayta shakllangan holatni" yo'qotadi. Demak, gapda nisbiy tugal fikr ifodalangani kabi nisbiy tugal modallik ifodalanadi.

Demak, modallik funksional – semantik kategoriya bo'lib, asosan, lisoniy vositalar yordamida ifodalanadi.

Modallik tushunchasi ostida so'zlovchining reallikka obyektiv va subyektiv munosabati namoyon bo'ladi. Obyektiv modallik har qanday gap uchun zaruriy. Subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga ko'riladi. Shuningdek, so'zlovchining o'z fikriga munosabati ham modallik bo'lib, bu ko'pincha, grammatik vositalar bilan ifodalanadi.

Modallik tushunchasi ostida munosabat mavjudligi e'tirof etiladi, biroq munosabat qaratilgan obyekt hilma - xilligi modallikni obyektiv va subyektiv turlarga bo'linishiga sabab bo'ladi. Munosabat qaratilgan obyektlar quyidagicha bo'linadi:

Gapdan ifodalangan mazmunning borliqqqa munosabati.

Subyektning o'z harakatiga munosabati.

Gapdan ifodalangan obyektiv mazmunga so'zlovchining munosabati.

So'zlovchining o'z fikriga turli munosabatlari.

Birinchi va ikkinchi raqam bilan berilgan obyektiv modallikka kiritilsa, uchinchi va to'rtinchisi subyektiv modallikka kiritiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, kimning va nimaning munosabati ifodalanishida ham hilma –xillik mavjud: mazmunning borliqqa munosabati, subyektning munosabati, so‘zlovchining munosabati kabi.

Modallikni obyektiv va subyektiv turlarga ajratishda “turli sathlilik” (A.Nurmonov) kategoriyasiga asoslanish kerak. Shuningdek, ularni mazmun planida birlashtirish mumkin. Bunda modalikni uch qismli ekaniga e’tiborni qaratish lozim: so‘zlovchi (yozuvchi) – munosabat – obyekt. Bunda so‘zlovchining borliqqa, ifoda mazmuniga, bayonga munosabati ana shu uch elementning o‘zaro munosabatidan kelib chiqadi, chunki aytilayotgan fikr haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lgan odam, taxmin va boshqa ottenkalarni qo‘shmaydi yoki aksincha.

G‘ani Zikrillayev modallikni ikki turga ajratishda avvalo ularning predikativlik bilan munosabatini nazarda tutish lozimligini aytib o‘tadi.

Xo‘sh predikativlik nima? Bu savol ham hozirgacha munozarali masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. A.G.Asqarova har bir gapning real borliq haqida biror xabar bayon qilishi, shuni ifodalashi gap mundarijasining real voqelik bilan bog‘liq ekanligini, aloqadorligini ko‘rsatadi. Bu hodisa - gap, nutq mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya, sanaladi deyishadi. Bu biz uchun ham inkor etmaydigan to‘g‘ri fikrdir. M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlar esa predikativlikni quyidagicha talqin qiladilar: “Gapda so‘zlovchining aytilayotgan fikrga bo‘lgan munosabati ifoda qilinadi. Bu predikativlikdir”.

Bu talqin (fikir) ni biz inkor etamiz. Chunki bu fikr biz munozara yuritayotgan modallik kategoriyasiga to‘la mos keladi. Modallik esa predikativlikdan farq qilib, undan kengroq tushunchadir.

Obyektiv modallik – mazmunning borliqqa so‘zlovchi nuqtai nazaridan munosabatidir. Bu tip modallik predikativlik bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, uni ifodalovchi vositalar ikki sostavli gapning kesimi yoki bir sostavli gapning bosh bo‘lagi tarkibiga kiradi. Fe’l mayllari, intonatsiya, so‘z tartibi, modal yuklamalar, leksik – semantik vositalar obyektiv modallikni ifodalaydi:

– “Hamroyev kechki ovqatdan keyin birpas cho‘zilmoqchi bo‘lgan edi, to‘g‘ri kelmadi.” (A.Qahhor)

– “Ajab qildim – dedi, Turobjon titrab, - jigarlaring ezilib ketsin!” (A. Qahhor).

Bu gaplarda esa bu vazifani intonatsiya bajaradi:

– “Soy bo‘yi. Tun. Kuz. Yigit bilan qiz,...” (M. Yusuf). So‘z tartibi va modal yuklamalar gap modalligini yo fe‘l mayllari bilan, yoki intonatsiya bilan birgalikda ifodalab keladi.

– “Ana xolos, - dedi Ortiqjon, - to‘lmas ekanda!” (A. Qahhor).

Bu gaplarning birinchisida modallik mayl formasi hamda modal yuklamalar orqali ifodalangan. Ikkinchi gapda so‘z tartibi hamda intonatsiya vositasi orqali ifoda qilingan.

Obyektiv modallikni ifodalovchi vositalar mazmunan bir xil emasligi sababli G‘.Zikrillayev bu modallik doirasida o‘zaro zid bo‘lgan real va noreal modalliklarni ajatib o‘rganishni tavsiya etadi.

Reallik modalligi gapda amalda mavjud bo‘lgan faktlar haqida fikr bayon qilinganligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda reallik gap mazmunining voqelikka mos kelishini ko‘rsatadi. Reallikni ifodalovchi asosiy vosita aniqlik maylidir. Modallikni gapning konstruktiv belgisi deb e‘tirof etish unga reallik ma‘nosini ham kiritishni taqozo etadi.

“U, qo‘rboshining o‘ng qanotini sindirdi, uning vaziri Is‘hoq Afandini o‘ldirdi”. (A. Qahhor). Bu misolda voqea reallikka to‘la mos keladi.

Noreallik modalligi gapda amalda mavjud bo‘lmagan, biroq amalga oshishi istalgan, maqsad qilingan yoki ma‘lum shart – sharoitda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqea–hodisalar haqida fikr bayon qilinganligini ifodalaydi. Noreallik keng ma‘noda gap mazmunining voqelikka mos kelmasligini ko‘rsatadi. Noreallik modalligi fe‘lning shart–istak mayli orqali, buyruq–istak va maqsad mayllari orqali ifoda qilinadi:

Men ko‘zimni bekka bermoqchiman. (A.Qahhor).

2. Hakim, - dedi polvon, - bek sog' ko'zlarini yumsinlar. (A.Qahhor).
3. Eski kitob kerak bo'lsa Shamsi so'taknikiga borsang bo'larkan. (T.Malik).

Birinchi gapda noreallik modalligi maqsad mayli orqali ifodalangan. Maqsad mayli deganda, fe'lining – moqchi bilan yasalgan formasini nazarda tutamiz.

Ko'rinib turibdiki, -moqchiman formasi orqali ish –harakat kelasi zamonda haqiqatdan ham sodir bo'lishi emas, balki uning bajarilishi maqsad qilinganligi ifoda qilingan.

Ikkinchi gapda noreallik modalligi buyruq –istak mayli orqali yuzaga chiqayapti. Bu misolda ish –harakatning bajarilishi aniq shart qilib qo'yilmayapti. Ya'ni polvonning bu gapi bilan bekning ko'zini yumishi yoki yummasligi aniq emas. Chunki bu misolda faat buyruq emas, qandaydir ikkilanish (istak) ma'nosi ham ifoda etilgan.

Uchinchi misolda noreallik modalligi shart – istak mayli orqali ifodalangan. Misol orqali ish –harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakat va istak shu mayl orqali yuzaga chiqayapti. Ya'ni eski kitobni topish uchun Shamsi so'taknikiga borish shart. Bu esa so'zlovchi tomonidan istalyapti.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa anglashiladiki, birinchi tip (obyektiv) modallik predikativlik bilan uzviy bog'liq bo'lib, gapning farqlovchi belgisi sanaladi, chunki u har doim butun gapga taaluqli bo'ladi, ya'ni predikatsiyadan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Obyektiv modallik bundan tashqari gapning zarur belgisi hamdir, negaki har bir gapda shu gap mazmunining voqelikka munosabati reallik yoki noreallik jihatidan ifodalangan bo'ladi.

Modallik ifodalovchi asosiy lisoniy vositalardan biri – kirish modal so'zlar hisoblanadi.

Kirish so'z mustaqil so'zning biror grammatik formasidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Aynan shu ko'rinishdagi mustaqil so'z esa morfemalarga ajraladi:

Har bir ishning chamasi bor, har daryoning kemasi bor (“Otalar so‘zi”) Yo‘lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan do‘st bo‘lib, uning butun sifatlarini, fazilat va kamchiliklarini yaxshi sinagan edi (Oybek “Qutlug‘ qon”). Mazmuni, tuman raxbarlari o‘zlari chiqargan qarorni boshlariga bolish qilib, bemalol uxlayotganga o‘xshaydilar. (“Mushtum” jurnali)

Salimboyvachcha hatto labini qimirlatmasdan ichida o‘qidi. Xatning mazmuni shunday edi. (Oybek “Ulug‘ yo‘l”)

Nihoyat kirish so‘zlar gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmaydi, kirish bo‘lak vazifasida keladi. Xuddi shu ko‘rinishdagi mustaqil so‘z esa gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi. Tabiiy, Xushro‘yning fe‘lini yaxshi bilgan ota-ona uning ruxsatini olmasdan turib bir ish qilmoqdan qo‘rqadilar. (Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar”)

Kun bo‘yi qo‘y boqqan cho‘ponlar oqshomlari chayla oldida gulxan yoqib o‘tirishlari tabiiy. (Sharof Rashidov “Bo‘rondan kuchli”).

Ayrim kirish so‘zlar yakka xolda qo‘llanyotganda mustaqil gap sifatida amal qiladi. Lekin, bunday xollarda xam kirish so‘z so‘zlovchining anglatayotgan fikriga munosabatini ifodalaydi:

Axir, biz qotil emasmiz – ku?!

So‘zsiz, so‘zsiz (Yoqubjon Shukurov)

Qiziq bir nom , xayvonlarning oshqozonini “ishkamba” deb edilar. Qanday munosabvt bilan odamga “ishkamba” nomini berganlar.

Qiziq rostdan (Sadriiddin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi”)

Siz Robiyani o‘zingizni qizingizdan ustun qo‘yasiz. SHuning uchun undan hech narsangizni ayamaysiz.

Haqiqatdan shunaqa. (O‘tkir Xoshimov “Ikki eshik orasi”)

Bazi hollarda so‘zlovchining anglatayotgan fikriga munosabati fikrning aniqligi yoki noaniqligi niuqtai nazardan bo‘ladi. Bu xol kirish so‘zlar ichida antonimlikni yuzaga keltiradi:

a) Bu, shubhasiz, haqiqat. (ishonch). Bu, ehtimol, haqiqat. (gumon).

b) Safarov, albatta, soat 7⁰⁰ da keladi. Safarov, balki, soat 7⁰⁰ da kelib qolar.

v) Ajabmas, axvolimni tushunsangiz. Ahvolini tushunishingiz, tabiiy.

g) Siz, soʻzsiz, unga boʻysunib yasholmaysiz. Balki, siz unga boʻysunib yasharsiz.

Kirish soʻzlarini ayrimlari oʻzaro sinonimiya munosabatida ham boʻlishi mumkin:

Chamasi – chogʻi;

Shubxasiz – soʻzsiz – shaksiz;

Oʻz – oʻzidan – tabiiy;

Haqiqatda – haqiqatan – darhaqiqat;

Ehtimol – balki – shekilli kabi.

Sinonim kirish soʻzlarning bir qismi oʻzaro maʼno qirrasida, koʻpchiligi esa nuqtada ishlatilishiga farq qiladi (Xuddi antonimlar kabi).

Masalan: shubxasiz, shaksiz, soʻzsiz sinonimlardan oxirgisida maʼno kuchliroq: fikrning qatʼiyligi hech qanday eʼtirozga qolmagan holda takidlanadi, avvalgilarida qatʼiylilik bu darajada emas:

Shubhasiz, sen bu mukofotga loyiqsan.

Shaksiz, sen bu mukofotga loyiqsan.

Soʻzsiz, sen bu mukofotga loyiqsan.

Ehtimol, balki sinonimlaridan balki modal soʻzi asosan gapning boshlanishida keladi, ehtimol kirish soʻzining oʻrni esa erkin gapning boshlanishida ham, tullanishida ham kela oladi:

Balki, u seni sevib qolgandir.

Ehtimol, u seni sevib qolgandir.

U seni, ehtimol sevib qolgandir.

U, ehtimol seni sevib qolgandir.

U seni sevib qolgandir, ehtimol.

Chamasi kirish soʻzi koʻproq gapning boshida kelishi kuzatilsa, Uning sinonimi chogʻi kirishi esa koʻprov gapning soʻng qismida kelishi kuzatiladi:

Chamasi, ikki yoshlarga kirib qolgan

Ikki yoshlarga kirib qolgan, chog‘i.

Biror turkum so‘z asosida kirish so‘z shakllanib kelgan bo‘lsa, endi ayni bir so‘zning ikki ma’nosi va ikki sintaktik vazifasi haqida gapirish to‘g‘ri bo‘lmaydi; bunday hollarda omonimiya hosil bo‘lganini etirof etish lozim. Bini quydagi misolarda aniq qo‘rish mumkin:

Siddiqjon Samandarovga baqrayib qarab turardi, aftidan, Uning bu erga nima uchun kelganini yuzidan bilishga harakat qilar edi.(A.Qaxxor “Sarob”) Uning aftidan: “Obbo Raxim chamoq - ey,... qoyil qilgan ekansan-ku...” – deganday havaslanish aks etib ketdi. (H. Nazir)

Birinchi misoldagi aftidan kirish so‘zi ma’no ifodalaydi, u morfemalarga ajralmaydi. Ikkinchi misoldagi aftidan nominativ ma’no anglatadi, u morfemalarga ajraladi va har bir morfema o‘z ma’nosida keladi (aft-i-dan).

Ikkinchi misoldagi aftidan so‘zi birinchi misoldagi yuzidan so‘zining sinonimidir. Birinchi misoldagi aftidan kirish so‘ziga esa mazmuni kirish so‘zi sinonim bo‘ladi.

Birinchi misoldagi aftidan gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmagan, gap bo‘lagi vazifasida kelmagan (Kirish bo‘lak bo‘lib kelgan).

Ikkinchi misoldagi aftidan esa gap bo‘lagi (to‘ldiruvchi) vazifasida kelgan. Kirish so‘z faqat shu bir shaklda ishlatiladi, ot so‘zi esa bundan boshqa juda ko‘p shakllarga (Son, nisbatlanish, kelishik formalariga) kira oladi. Demak bu ikkisi (aftidan-aftidan) orasida hozir faqat shakli (aytilishi va yozilishi jixatlar) o‘xshashlikkini qolgan, endi bular omonimga aylangan.

Yana bir misol: Murod ota yomg‘ir yog‘ir extimolini aytib, yo‘ldan qaytarishga urinib ko‘rdi. (Odil Yoqubov “Oq-qushlar oppoq qushlar”). Bulutlarni harakati bejo. Hali zamon tepamizda quyib bersa xam extimol (X.Nazir). Extimol, so‘zng to‘g‘ridir (Uyg‘un “Parg‘ona”)

Birinchi misolda ot so‘z turkumi qatnashgan. Ikkinchi misolda ham ot so‘z turkumi qatnashayotir, ammo u modal ma’noni anglatib kelmoqda.

Bunday ma'no bu so'zning sintaktik vazifasiga bog'liq holda yuzaga keladi. Bu ot so'zidan kirish so'zining o'sib chiqishi xuddi shu pozitsiya va ma'noga asoslanadi. Avvallari shart mayli formasidagi fe'l bilan (borsa, ehtimol kabi) bog'lanib yurgan bu so'z boshqa formadagi fe'llar ham (borar, ehtimol; boradi ehtimol kabi). Xullas, ma'noda, formada, vazifada ajralishi voqe bo'lib, omonimiya yuzaga keladi. (ehtimol – ot, ehtimol – modal so'z).

Xullas, kirish so'zlar mustaqil ma'no birdirmay; predmet, belgi, xarakter anglatmaydi. Shuningdek, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi. Ba'zi kirish so'zlar aslida mustaqil so'zlardan kelib chiqqan. Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zlarning yuzaga kelish uchun asos bo'lgan so'zlar ham saqlangan bo'lishi mumkin. Kirish so'zlar yana bir xususiyati shundaki; ular antonim, sinonim, omonim bo'lib kelaoladi. Antonim va sinonim, kirish so'zlarning bir qismi ma'no qirrasida, boshqalari qo'llanishiga ko'ra farqlanadi.

Kirishlarning uslubiy xususiyatlari. Kirishlar so'z, so'z birikmasi, gap shaklida bo'lib, barcha nutq uslublarida qo'llanadi. Lekin, ularning ma'lum qismi nutq uslublarining birida ko'p, birida esa oz qo'llanishi yoki birgina nutq uslubiga xoslanganligi bilan farq qiladi. Bu quydagicha:

Kirishlar so'zlovchi shaxsning aytilayotgan fikriga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bular quydagi semantik – stilistik xususiyatlariga ega: Ishonch yoki tasdiqnini ifodalaydi. Tipdagi kirishlar deyarli barcha nutq uslublari uchun xarakterli. Lekin bular so'zlashuv, badiiy, ommabop uslublarda nisbatan ko'proq uchraydi:

Ommabop: Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini kuchaytirish chora tadbirlari, albatta, bozor tizilmalari tarmog'iga ulanadi (Islom Karimov). Axolining turmush darajasi yaxshilanishi ko'zga tashlangani barchamizga mamnuiyat baxsh etadi, albatta (Islom Karimov).

Badiiy: Temuriy shaxzodalarning eng qobili va eng munosib sohibi taxt, Shubhasiz, Husayin Boyqarodur (Zahriddin Muhammad Bobur).

So'zlashuv: Ra'no katta bo'lsa; albatta, o'g'limga olib beraman.

Ilmiy: Aniqroq qilib aytganda bunday fe'llarning ma'nosi, asosan undov so'zga xos ma'no bilan "demoq" fe'lining ma'nosiga, ma'nosi yig'indisiga mos keladi. (O'zbek tili Grammatikasi, I tom).

Bu uslublarda yana kirishlarning quydagi ko'rinishlari uchraydi: Chindan xam ko'ngli ravshan tortganday bo'ldi (Xamid G'ulom).

Sizdan, ko'rasiz, yaxshi traktorchi chiqadi. (Said Axmad).

Gazetada siz haqda shu ma'lumotni o'qiganimda, ochig'i ishonmagandim. (H.Nazir).

Gapning to'g'risi bu xil sayru sayoxatlardan so'ng, u ba'zan uyga qaytmasdi. ("Abu Ali Ibn Sino" qissasidan).

Haqiqatda, keyin bilsam chol uni aldab olib kelgan ekan.(H.Nazir).

So'zamol, badavlat qari tog'aning birdan ko'z yulib, sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmaydi. (Oybek).

Sexning, to'g'rirog'i, butun zavodning olovli markazi mana shu erda (Simonov).

Menga ma'lum bo'lishicha, bu haqda faqat general Do'stum gapirmoqda (Islom Karimov).

Men, haqiqatda. Dushanba kech soat 19⁰⁰ da fuqaro Saidqosimov bilan uchrashganman (Tilxatdan).

Bu tip kirishlarning so'zsiz, o'z-o'zidan, aniqki kabilar ko'proq ilmiy uslub xarakterlidir. Agar ravishdagi formasidagi fe'l keyingi fe'lning belgisi ko'rsatsa, o'z-o'zidan keyingi fe'l mustaqil fe'l bo'ladi (o'zbek tili grammatikasi, I tom).

Gumon ifoda qiladi. Bu tip kirishlar ham ko'proq so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarga xosdir.

Aftidan, Davron unga joy band qilib o'tiribdi! (Pirimqul Qodirov).

Mening so'zlarim sizga, Ehtimol, achchiq tatiyotgandir (H.G'ulom).

Boshlagan ishimiz Ollo taologa yoqmadi, chog'i (Said Axmad).

Sirini aytishga, yuragini bo'shatishga g'ururi yo'l qo'ymadi, shekilli (H.G'ulom).

Balki, bu baxtdir, balki baxtsizlikdir (H.G‘ulom).

Ehtimol, bir onasi qolgandir bag‘rin yoqib, ehtimolki, bu qiz bir savdogarning qizidir. Ehtimol, bu suxsir, bir parining o‘zidir (Ertakdan).

Ikkala juvon, faqat shunday gap ochilishini kutib turgan ekan, shekilli, bir-biriga navbat bermay bidirlay ketdi (so‘zlashuv).

Chamasi, muxolifatning Tehron va Moskvadagi vakillari til topishgan, shekilli (Islom Karimov).

Ehtimol kirish so‘zi ba‘zan ilmiy uslub (Yuzaga kelishi no‘malum bo‘lgan xodisa) da, (geografiya biologiya fani doirasida) da ham qo‘llanishi mumkin:

Ehtimol, er maydonlarining o‘zaro aylanib ketish natijasida ma‘lum bir hududiy chegaralar TK birligi hisoblangandir.

Lekin, ilmiy rasmiy-idoraviy uslubning ekstralingvistik belgilari bu tip konstruksiyalarining ilmiy, rasmiy-idoraviy matnlarda qo‘llanishini chegaralaydi.

So‘zlashuv uslubida basharti, bordi-yu, kirishlari ko‘p qo‘llaniladi: Bordi-yu, o‘sha yulduzlarda inson ham bo‘lsa-chi? (J.A.). Bashrti, Hakima kech qolsa-chi?

So‘zlashuv uslubida kim biladi konstruksiyasi ham nutqdagi vazifasi va ma‘nosiga ko‘ra kirish vazifada keladi:

Mana shu voqea, kim biladi nima uchundir Abdullaning hayolidan sira ko‘tarilmasdi (O‘lmas Umarbekov).

Orzu – umid, istak, mamnunlik ifodalaydi. Bu tip kirishlar ko‘proq so‘zlashuv, badiiy, ommabop uslublarda qo‘llanib, ilmiy, rasmiy idoraviy uslublarda kuzatilmaydi:

Shoyadki, siz ul bemorni gunohini hojasidan so‘rasangiz, o‘tsa, o‘shal bechora azobidan halos bo‘lsa (“Qissasi Mashrab” dan).

Ishqilib, yozgan diplom ishimiz, diplom raxbari-yu, apponenga ma‘qul tushsinda! Hayriyatki, keyingi to‘qqiz oy davomida so‘mning Amerika Qo‘shma Shtatlari dollariga amaldagi nisbati bar qaror bo‘lib turibdi (Islom Karimov).

Bu tipdagi kirishlarning yana quydagi ko‘rinishlari uchraydi: Qani endi, boshqa saroy shoirlarimiz ham shundoq mashq qilishsa (V.S).

Koshkiydi, Navoiy suxbatiga muyassar bo‘lsam.(V.S).

Yaxshiyamki, eshik mahkam berk ekan (J.A).

Xayriyat, ko‘rishdik, do‘stim Alisher! (V.S)

Taajjub ifodalaydi: Bu tip kirishlar ko‘proq badiiy, so‘zlashuv uslublarida qo‘llanib, ba‘zan ommaviy uslubda ham uchraydi. Ilmiy rasmiy-idoraviy uslubda esa kuzatilmaydi:

Nima balo, yurtlaringda piyoz yo‘qmi? (Pirimqul Qodirov).

Sobirjonqorining chorvog‘ida o‘tkazgan damlarimiz qanday damlar edi, naxotki, o‘sha kunlar esingdan chiqqan bo‘lsa (Abdulla Qahhor).

Ajabo, bu ulug‘ bino ham turg‘unlik davrida mustamlakachilar tajavvuzining qurboni bo‘lgan (gazetadan).

Taajjubki, shu yil tekshirilgan uch yuzdan ortiq tashkilotning 70 foizida 92 million so‘m zarar keltirilganligi, har uchtadan bittasida esa, katta miqdorda o‘g‘rilik va kamomad aniqlashgan. (“Halq so‘zi”dan).

Bunday kirishlarning quydagicha ko‘rinishlari xam uchraydi:

Nima balo, o‘zingni tilinga ham tushunmaysanmi? Tavba, bunchalik ham qiynoq bo‘ladimi odamga? (O‘lmas Umarbekov).

Qiz cho‘chib tushdi: – Voy! borligini bilmabman-a, qarang... (J.A).

O‘xshatish ifodalaydi. Bu xil kishilar ham so‘zlashuv va badiiy uslublar uchungina xarakterlidir:

Oqshom pardasi qoplangan ko‘cha. Xiyobonda quyosh charaqlab ketdi, misoli (R.F.)

Ta’kid ifodalaydi: Axir, har bir davr o‘z romantikasini yaratadi-ku! (J.A).

Navoiyning qo‘lida qilich emas, qalam bor, xolos. (V.S).

Qaytaga, bora-bora so‘qqaboshday yolg‘izlanib qolishi turgan gap (H.G‘).

Taxmin ifodalaydi: Bu xil kirishlar ilmiy, rasmiy-idoraviy uslublarda deyarli qoʻllanmaydi. Chunki ilmiy uslubda fikrning aniq ifodalanishi talab etiladi. Bular asosan, soʻzlashuv uslubi uchun xarakterlidir:

Dildorning boshiga ogʻir bir ish tushgan. Chamanda (H. Gʻulom).

Chamanda ketmon bilan er agʻdarishiga toʻgʻri keladi. (Abdulla Qahhor).

Subyektiv modallik gapda ifodalangan obyektiv mazmunga soʻzlovchining munosabatini ifodalaydi. Bu tip modallikni ifodalovchi asosiy vosita modal soʻzlardir. Modal soʻzlar gapda koʻpincha kesimga bogʻlanib kelib, umumgap modalligini ifodalovchi vosita funksiyasini bajaradi. Haqiqatdan, oʻrtoq shoir, juda qiziq kinokomediya qilish mumkin. (A.Qahhor).

Darhaqiqat, dushmanga roʻpara boʻlish vaqti yetgonga oʻxshaydur. (X.Zayniddin).

Subyektiv modallik soʻzlovchining gap mazmuni realligiga boʻlgan munosabatini, yaʼni uni qanday baholashi ifodalaydi. Soʻzlovchining gap mazmuni realligini baholashi uning gapda bayon qilingan voqelik fakti haqida qay darajada xabardorligiga bogʻliq boʻladi. Shunga koʻra, modal soʻzlar dastlab quyidagicha guruhlanadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal soʻzlar.
2. Fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal soʻzlar.

Bu ikki tip modal soʻzlar fikrning ishonchli yoki taxmin ekanligini ajratib turadi.

Ishonch maʼnosini kuchaytiruvchi modal soʻzlar (albatta, shaksiz, shubhasiz, chindan, haqiqatdan ham kabi) bilan ifodalanib, soʻzlovchining gap mazmuni realligiga ishonchi komil ekanini, undan toʻla xabardorligini koʻrsatadi: Kelin, darhaqiqat, yosh, lekin huddi qiziqchilikka semirganday yum – yumaloq. (A.Qahhor).

Haqiqatdan ham, qattiqqoʻllik bilan koʻrilgan chora tanbal, tayyorga ayyor qipchoq amirlariga yoqmadi, ularning umumnoroziligiga sabab boʻldi. (X.Zayniddin).

Bir necha kun shu zaylda o'tdi. Bu hol elchining izzat – nafsiga tegmay qolmadi, albatta. (X.Zayniddin).

Bu gaplardagi modal so'zlar gap mazmunidan anglashilgan reallikka so'zlovchining qat'iy ishonchini ko'rsatib kelyapti.

Taxmin ma'nosi potensial modal so'zlar (ehtimol, balki, chamasi, aftidan, chog'i va b) orqali ifodalanib, so'zlovchining gap mazmun realligidan xabardor emasligini bildiradi: - O'x –xo', bazm - jamshidning ustidan chiqib qolibmiz, chog'i! (X.Zayniddin).

Bilmayman, chamamda sim qoqdi dedi. (A.Qahhor).

Marosimga mahalladan ko'p odam qatnashmadi, aftidan domla ko'p odamning qalbida bir oy oldin o'lgan, ko'plar o'sha to'yni domlaning janozasi hisoblashgan edi. (A.Qahhor). Bu gap yoqdi shekilli, rais iljaydi.

Bu gaplarda chamamda, chog'i, aftidan, shekilli modal so'zlari so'zlovchining gap mazmuni realligiga bo'lgan taxminini ifodalab kelayapti.

Lekin subyektiv modallikni obyektiv modallikdan farqlashda ifoda planiga, ya'ni subyektiv modallikni modal, kirish so'zlar vositasida ifodalanishiga suyanib qolmaslik kerak. Modallikni ifoda planiga suyanib ajratish masalani to'la yechish imkoniyatini bermaydi.

Subyektiv modallikni yana bir vosita – ohang (intonatsiya) orqali ifodalash mumkin. Bu narsa dialoglarda aniq ravshan namoyon bo'ladi. Chunki kishilarning hayotiy ehtiyoji ularni boshqa kishilar bilan turli xil munosabatda bo'lishga undaydi. Bu munosabat bir butunligicha asosan jonli so'zlashuv nutqi va uning bir shakli bo'lgan dialogik nutq orqaligina amalga oshadi.

Dialogik yozma nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi o'ziga xos hamda murakkab hodisa bo'lib, uni lingvistik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir. Buning quyidagicha asoslari bor.

Birinchidan, har bir tilning o'ziga xos nozik, hilma – xil va rang –barang milliy xususiyatlari faqatgina dialogik nutqda o'z aksini to'la namoyon qiladi.

Ikkinchidan, soʻz ustalari, yozuvchilar ham dialogik yozma nutqda ona tilining milliy, tom maʼnodagi ayrim jihatlarini har tomonlama ochib berishga harakat qiladlar.

Uchinchidan, dialogik nutq bu muloqotdir. Shuning uchun unda soʻzsiz, tilning barcha imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Toʻrtinchidan, dialogik nutqda albatta ikki, uch, hatto koʻproq shaxs ishtirok etadi.

Natijada subyektiv modallik ifodalovchi turli –tuman vositalarni erkin qoʻllash uchun keng imkoniyatlar paydo boʻladi.

Beshinchidan, dialogik nutq surʼatining nisbatan tezligi har bir vositaning maʼno tomonidan serqirra boʻlishini talab qiladi. Subyektiv modallikni ohang yordamida dialogik nutqda ifodalanishini quyidagi misolda koʻrishimiz mumkin:

Sen bizga hiyonat qilding, it uvli!

Iqrormen.

Tuzimni unutding!

Tonmayman.

Iqrorsen, tonmaysen, oʻbdon ish! – dedi

Zaharxanda qilib xon, - oʻluvdan ham qaytmaysen!

Men sizdan marhamat soʻrab kelgan emasmen! – dedi iljayib Anvar, - oʻzimni oʻlinga berib, bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman!

A . Qodiriy “Mehrobdan chayon” , 235 – bet .

Yuqoridagi misolda kirish soʻz vazifasida kelgan soʻz, modal soʻz yoʻq, biroq bu oʻrinda kuchli subyektiv modallik mavjud. Xonning nutqida va Anvarning javobida leksik –semantik vosita feʼl tuslanishi orqali, matndagi umumiy semantic maydon orqali subyektiv modallik sezilib turibdi.

Demak, modallikning birinchi tipi gap mazmunining voqelikka munosabatini reallik (noreallik) jihatidan ifodalasa ikkinchi tipi soʻzlovchining gap mazmuni realligiga boʻlgan ishonchi (taxmini) ni bildiradi. Ikkinchi tip modallik soʻzlovchining gapda bayon qilingan voqelik fakti haqida qay darajada

xabardorligiga bog'liq bo'lganligidan ko'proq subyektiv harakterda, birinchi tip modallik esa bunday xususiyatga ega bo'lmaganligidan ko'proq obyektiv harakterda bo'ladi.

Obyektiv va subyektiv modallikning o'zaro qator bog'liqlik tomonlari ham borligini G.Zikrillayev aytib o'tadi va quyidagicha izohlaydi:

Birinchidan so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan subyektiv munosabati gap mazmunining voqelikka munosabati asosida belgilanadi. Aniqroq aytganda so'zlovchi gap mazmuni realligiga o'zining ishonchi (taxmin) ni ifodalar ekan, bu bilan u gap mazmunining voqelikka mos kelishiga o'zining ishonchi (taxmin) ni ifodalaydi. Shunga ko'ra, modallikning ikkinchi tipi pirovardida gap mazmunining voqelikka munosabatini ifodalaydi. Ikkinchidan, subyektivlik birgina ikkinchi tip modallikda emas, balki birinchi tip modallikda ham mavjud bo'ladi. Faqat bu ma'no modallikning ikkinchi tipida belgilangan, birinchi tipida belgilanmagan bo'ladi. Uchinchidan, birinchi va ikkinchi tip modallik gapda bir –biridan ajralgan holda emas, balki birgalikda umumgap modalligini hosil qiladi. Bunda birinchi tip modallik gap modalligining birinchi va asosiy qatlamini, ikkinchi tip modallik gapda bir –biridan ajralgan holda emas, balki birgalikda umumgap modalligini hosil qiladi. Bunda birinchi tip modallik gap modalligining birinchi va asosiy qatlamini, ikkinchi tip modallik ikkinchi –qo'shimcha qatlamni tashkil qiladi [25.25].

Yuqoridagi fikrlar obyektiv va subyektiv modallikni bitta kategoriya doirasida o'rganish imkonini beradi.

2.2. Tilshunoslikda modallikni ifodalovchi vositalar

Modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim komponentidir. Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining ob'ektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi [41.115]. Modallik kategoriyasiga gap modalligini ta'minlashga xizmat qiladigan xilma-xil vositalar kiritiladi. V.Z. Panfilov

ta'kidlaganidek, juda ko'p mualliflar tomonidan modallik kategoriyasi sostaviga o'z mohiyati jihatidan funksional vazifasi, til tuzilishiga mansubligi jihatidan, xilma-xil bo'lgan ma'nolar kiritiladiki, natijada bu kategoriya ma'lum aniqlikdan maxrum bo'ladi [51.3]. Bu esa xatto modallikning aloxida til kategoriyasi sifatida mavjudligini ham shubxa ostiga qo'ydi. Jumladan, I.P.Raspapov modallik haqida fikr yuritib, sof grammatik ma'nodagi kategoriya sifatida xech qanday modallik kategoriyasi mavjud emas, deydi. Uning fikricha, modallik kategoriyasi haqida emas, balki gapning modal sifati haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'ladi [53.10]. T.P.Lomtev ham bu kategoriyaga nisbatan xuddi shunga o'xshash fikr bildiradi. Uning fikricha, modal harakteridagi grammatik kategoriya "bir grammatik kategoriya emas", balki bir sistemani tashkil etadi [49.91]. Modallik haqidagi bunday fikrlar tasodifiy emas, albatta. Modallikning an'anaviy tadqiqiga ko'ra, darhaqiqat uni ta'riflash juda qiyin. Modallik ma'nosi til sistemasining turli satxlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barangdir. Tilshunoslikda bu vositalarni aniqlashning yagona metodikasi bo'lmaganligi tufayli, modallikni ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha ajratilmoqda. Jumladan, N.Yu.Shvedovanning fikricha, modallik vositalariga mayl, gapning alohida konstruksiyalari, intonatsiya, so'z tarkibi, takror, yuklama, undov, kirish (modal) so'zlar va gaplar mansubdir.

Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ko'rsatiladi: mayl, zamon va shaxs son qo'shimchalarining aloxida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar, ko'rinib turibdiki, bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affikslari), leksik (so'zlarning turli guruxlari), sintaktik(aloxida gap qurilmalari so'z tartibi, takror va fonetik vositalar ya'ni intonatsiyalar) kiritiladi. Bir kategoriya ostiga bunday xilma-xil vositalarning birlashtirilishi tilshunoslar o'rtasida, tabiiy ravishda, ayrim e'tirozlarning tug'ilishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham bu vositalarni birlashtiradigan bir umumiy belgi topishga harakat qilindi. Bu vositalarning hammasi o'z funksiyasini

gap ichida (gap satxida) ko'rsatadi. Ana shu belgi, sintaktik belgisi yuqoridagi vositalarni birlashtirishga ma'lum darajada asos bo'ldi. Shunga ko'ra modallik vositalarini ham: 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik-sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik guruxlarga ajratish mumkin [56.17-20]. Barcha modal ma'nodagi vositalarga sintaktik maqom berilishi bu vositalarning tuzilishi umumiylikni ko'rsatish uchun asos bo'ladigandek tuyuladi. Ammo ma'lum bir o'rinda birlashtirishga asos bo'lgan bu sintaktik belgisi modal vositalar farqlanishida o'z quvvatini yo'qotadi [56.17-20]. Shuning uchun ham R.G.Sibagatov modallik kategoriyasini belgilashda turli satxlilik kategoriyasiga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi. Darhaqiqat tilshunoslikda turli sathlilik kategoriyasi mavjud bo'lib, bu kategoriyaning turli sathga oid birliklarning bir umumiy tushuncha atrofida birlashish xosil qiladi. Turli sathlilik kategoriyasining mazmuni – bu butun bir semantik soha bo'lib, bir-biridan farq qiluvchi va shu bilan birga bir tushuncha ostiga birlashgan grammatik va leksik kategoriyalarni o'z ichiga oladi [34.5]. Shu nuqtai nazardan, modallik kategoriyasi planiga ko'ra haqiqatan ham turli sathlilik kategoriyasiga mansubdir. Turli sathga oid birliklar bir tushuncha - modallik tushunchasi ostiga birlashadi. Demak, modallik kategoriyasi til kategoriyasi sifatida ob'ektiv mavjuddir. Modallikning umumiy ta'rifga tilshunoslikda ma'no plani nuqtai nazaridan yondashiladi, ya'ni munosabat belgisi e'tiborga olinadi. Ammo V.Z.Panfilov ta'kidlaganidek, tilshunoslikda bu kategoriyaning mohiyati, uning fikr modalligi munosabati, gap modalligining tiplari, modallikning predikativlikka munosabati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim masalalar bo'yicha bir xillik yo'q [51.152].

Gapning nominativ aspekti tarafdorlari gapni ikki qismga diktum va modusga ajratadilar. Diktum – bu sintaktik qurilma ifodalaydigan ob'ektiv mazmun, ya'ni propozitsiyadir. Ma'lum sintaktik qurilmaning gap bo'lib shakllanishi uchun faqat diktumni (propozitsiyani) ifodalashgina yetarli bo'lmaydi. Sh. Ballining fikricha, modus qo'shilgandagina gapga aylanadi. Demak, modus gapning eng muhim qismidir, usiz gap shakllana olmaydi. Chunki modallikni aks

ettira olmaydi. U jumlaning diktumdan boshqa barcha xususiyatlarini modusga kiritadi. Shuning uchun ham Fillmor jumla formulasini $C = M + P$ (C - jumla, M - modallik, P - propozitsiya) – (diktum) tarzida ko‘rsatadi. Bunday tushunishda kommunikatsiyaning turlari hisoblangan darak, so‘roq, buyruq ma’nolari, emotsional ma’nolar, sub’ektiv – modal ma’nolar va boshqalar modus hisoblanadi. Modallik V.Vinogradovning 1950-yilda e’lon qilingan “O kategorii modalnosti i modalnix slox v ruskomu yazika” maqolasida ham shunday keng talqin qilindi va uning bu konsepsiyasi sovet tilshunosligidagi modallik muammosi yuzasidan qilingan keyingi tadqiqotlarga ham juda katta ta’sir ko‘rsatdi. V.Vinogradov va uning izdoshlari tomonidan modallik ostida:

- 1) kommunikativ ma’no turlari: darak, so‘roq, buyruq ma’nolari bo‘yicha farqlanadigan gap turlari,
- 2) tasdiq va inkor bo‘yicha farqlanadigan gap turlari;
- 3) gap mazmuniga so‘zlovchining hissiy munosabati va boshqa bir qator ma’nolar birlashtiriladi.

ba'zan, aslan shaklida ham uchraydi): D a r v o q e, bu gap raisning uyida ham aytilgan edi (Said Nazar) kabi.

2. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modallar o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi:

1) fikrning taxminiy ekanini ifodalovchilar: *shekilli, chog'i, chamasi* kabi:

Ha, yana bir ta'ziringni beradigan bo'ldim, ch a m a s i! (Uyg'un). Bu gapim raisga og'ir botdi sh e k i l l i, o'zi bosh bo'lib bolalarini dalaga olib chiqdi (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) fikrning gumonli ekanini ifodalovchilar: *ehtimol, balki* kabi: *B a l k i* u yerlarda ko'p dilbar Manzaralar jilva qilgandir... (Uyg'un). Boshqa payt bo'lganida Latofat, e h t i m o l, bu faryodga chidab turolmasdi (Odil Yoqubov) kabi;

3) fikrning tusmolli ekanini ifodalovchilar: *xoy-naxoy, aftidan, mazmuni* kabi: Sharofat, a f t i d a n, bunaqa gaplar bilan .. shu yerda biron mojaro boshlab dod solmoqchi edi (Abdulla Qahhor) kabi;

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham ifodalovchilar: *har qalay*, har holda kabi: Jahonning kattaligi aniq o'lchangancha yo'q; h a r h o l d a, bir soldatning qalbidan kichik bo'lur (G'afur G'ulom) kabi.

3. Ayrim modallar yuz bergan voqea-hodisadan so'zlovchining taajjubini, afsusini ifodalaydi: ajabo, attang, esiz, tavba, xayriyat kabi: A j a b o, shu o'zimizning Saodatmi?! (G'afur G'ulom). A t t a n g, shunday dolzarb vaqtda eng yaxshi brigadirimiz yotib qoldi-da (Abdulla Qahhor) kabi.

Bundan tashqari, mumkinlik, imkoniyati borlik. Olmoq, bo'lmoq kabi ko'makchi fe'llar bilan ifodalanadi. Xoxish-istak. Bu ma'no maxsus modal fe'llar (xoxlamoq, istamoq va boshqalar) orqali ifodalanadi.

Modal fe'llar infinitiv orqali ifodalangan harakat yoki holatga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. Ular infinitive orqali ifodalangan harakatga nisbatan ehtimollik, majburiyat, zaruriyat, maslaxat, mumkinlik, imkonsizlik, shubha, ishonchsizlik kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Modal fe'llar: *can*

(*could*), *may* (*might*), *must*, *should*, *ought*, *shall*, *will*, *would*, *need*, *dare*. Modallar *to be* + Infinitive va *to have* + Infinitive orqali ham ifodalaniladi. Modal fe'llar defektli (ya'ni nuqsonli) deb ham ataladi, chunki ularning ko'pi (*dare* va *need* dan tashqari) fe'llik va analitik shaklga ega emas. Bundan tashqari ular III shaxs birlikka -s qo'shilmaydi. Ularning quyidagi xususiyatlari ham mavjud:

1) ularning hammasi (*ought* va ba'zan *dare* , *need* dan tashqari) to siz infinitive orqali ifodalaniladi.

2) ularning hammasi (*dare* va *need* dan tashqari) so'roq va inkor gaplarda yordamchi fe'l do siz ishlatiladi.

3) hamma modal fe'llarni 2 xil shakli mavjud – to'liq va qisqartirilgan.

should not — *shouldn't*

may not — *mayn't*

must not — *mustn't*

need not — *needn't*

dare not — *daren't*

Note the peculiar contracted form of some modal verbs:

cannot — *can't* [kant]

shall not — *shan't* [shant]

will not — *won't* [wount]

2. Can.

Can 2 xil shaklga ega: *can* hozirgi zamon va *could* o'tgan zaamon uchun qo'llaniladi.

-“I can't explain it,” said Therese. “I can't explain anything I did today.”

(Heym) "

"Men buni tushintirib bera olmayman “dedi Teres”. Men bugun nimadir qilganimi tushintirib bera olmayman.

-He jumped as high as ever he could. (Galsworthy)

U qo'lidan kelganicha balandga sakradi.

-How weakened she was I had not been able to imagine until I saw her at the railway station in Chinkiang. (Buck)

Men Chinkiang temir yol bekatida uni uchratmaginimcha uni qanchalik to'liqqan ekanligini tasavvur ham qila olmas edim.

Can qobilyat yoki iqtidorni, mumkinlikni, shubxa yoki hayratni ifodalaydi.

1. Jismoniy yoki aqliy qobilyat.

-Cousin Val can't walk much, you know, but he can ride perfectly. He's going to show me the gallops. (Galsworthy)

Bilasizmi, amakivacham Val uzoq yura olmaydi, lekin u otda yahshi chopadi. U menga otlarni ko'rsatmoqchi.

Bu gapda *can* faqat hozirgi oddiy infinitive qo'llanilyapti.

2. Ehtimollik

a) vaziyatga bog'liq:

-I could not go to the theatre yesterday because I was busy

Kecha men bandligim sababli teatrga bora olmadim

-You can have the book when I have finished it.

Kitobni o'qib bo'lganimdan so'ng olishingiz mumkin.

-Can I have my photo taken?

Tushgan suratimi olsam bo'ladimi?

So'ngi 3 ta gapda *can* ruxsatni ifodalash ma'nosida may ga yaqin.

(b) mavjud qonun qoidalarga bog'liq bo'ladi:

- Every citizen can get medical treatment free of charge.

Har bir fuqoro davlat tomonidan tibbiy davolanish huquqiga ega.

You cannot play football in the street (i. e. you have no right).

Siz ko'chada futbol o'ynolmaysiz (sizni huquqingiz yo'q)

Can oddiy infinitive ehtimollikni ifodalaydi.

Could iltifotli so'roqlarda ishlatiladi.

Could you give us a consultation tomorrow?

Siz bizga ertaga maslahat bera olasizmi?

2. Shubha, hayratni ifodalaydi. (ular yaqin bog'langan bo'ladi).

Bunday ma'nolarda can so'roq va inkor gaplarda infinitivning barcha shakllari bilan qo'llaniladi, garchi so'roq gaplarda hayrat ifodalansada.

No wonder her father had hidden that photograph... But could he hate Jon's mother and yet keep her photograph? (Galsworthy)

Uni dadasi suratni berkitib qo'ygani hayratlanarli hol emas. Nahotki u Jonni onasidan nafratlangan bo'lsada u suratni hali hamon saqlar edi.

"That is not true!" exclaimed Linton, rising in agitation. "It cannot be; it is incredible, it cannot be." (E. Bronte)

"Bu yolg'on – dedi Linton hayajon bilan sakrab. – Bunday bo'lishi mumkin emas.

Can she be waiting for us?

Shunday bo'lishi mumkinmi, u bizni kutib turishi?

She cannot be waiting for us.

U bizni kutmasligi mumkin emas. Nahotki u bizni kutyapdi?

Can (could) she have said that?

Nahotki u shuni aytgan bo'lsa?

There could not have been such relentless unforgiveness. (Galsworthy)

Shunday qattiq qol kechirimaydigan insonni o'zi bo'lishi mumkin emas

"Oh!" cried Fleur. "You could not have done it." (Galsworthy)

Buni siz qilganligingiz mumkin emas- deb baqirib yubordi Fler

Can she have been waiting for us all the time?

U bizni hali ham kutishimi mumkinmi?

She cannot have been waiting for us all the time.

U bizni hali ham kutishimi mumkin emas.

Confusion came on Jon's spirit. How could she say such things, just as they were going to part? (Galsworthy)

Jon o'ylanib qoldi. Ular ajrashayotgan payitda u qanday qilib bunday narsalarni gapira oladi.

What could she have seen in that fellow Bosinney to send her mad?

(Galsworthy)

U o'sha Bossinida nimani topdi ekan aqli yo'qotadigan darajada?

Brett. They saw us. I hope they didn't recognize us.

Genevra. The car was going too fast. They couldn't have seen us. (Gow and D'Usseau)

Brett. U bizlarni ko'rdi. Ular bizni tanimadi deb umid qilaman. Genevra. Avtomobil juda ham tez harakatlanar edi. Ular bizni ko'ra olmas edi.

So'nggi 2 ta gapda *could* va *can* ning o'rnini ma'nolarda xech qanday o'zgarishsiz almashtirsa bo'ladi.

Could bilan Perfect Infinitive *can* bilan Perfect Infinitive kabi bir xil ma'noga ega, faqat inkorda *can* bilan bunday kategoriyaga ega emas.

Agar harakat o'tgan zamonni ifodalasa, Perfect Infinitive ishlatiladi. Infinitivning boshqa shakllari ishlatilishi ozgina qiyinchilik keltirib chiqaradi.

3. May.

May modal fe'li 2 xil shaklga ega: *may* hozirgi zamon uchun va *might* o'tgan zamon uchun. *To be allowed* and *to be permitted* iboralari bir xil ma'noga ega, ular *may* ning yasalmaydigan shaklini ta'minlashga xizmat qiladi.

"May I come along?" asked Karen. (Heym)

"Sizni oldingizga kelib tursam maylimi? so'radi Karen

Jolyor thought he might not have the chance of saying it after. (Galsworthy)

Jolyor bunday gapirishga fursat yana keyin bolmasligini o'yladi.

You are to stay in bed until you are allowed to get up. (Du Maurier)

Sizga ruxsat bermagunga qadar joyingizda qolishingiz kerak.

May ruxsatni, ishonchsizlikni, extimollikni, o'pkalash ma'nolarini ifodalashda qo'llaniladi.

Ruxsat.

"May I use your phone?" (Heym)

Maylimi telefongizdan foydalansam?

Ta'kidlab o'tilganidek, *can* ham turli ma'nodagi ruxsatni ifodalash uchun qo'llaniladi:

You may take the book bu gap so'zlovchi ruxsat beryotganini anglatadi; *You can take the book* bu gapda kishi kitobni olmaslikdan boshqa vaziyat mavjud emas.

May faqatgina hozirgi zamon infinitive bilan ruxsat ma'nosini ifodalaydi. Bu yerda biz ruxsat va ta'qiq jumllaridagi farqni ta'kidlab o'tishimiz kerak.

Modomiki, birinchisida *may* bilan ifodalansa, ikkinchisida *may not* dan tashqari boshqa usullarda ham ifodalash mumkin. Ruxsat so'rash ma'nosidagi savollarga javob *don't* yoki *must not* orqali ham ifodalanadi.

May I read the letter?

Maylimi xatni o'qisam?

-No, don't, please.

Yo'q unday qilmang,iltimos

Don't may not ga qaraganda biroz qat'iyroq, biror ish harakatni bajarilishiga kesatiqdan ko'ra, biror ish harakatni bajarmaslikni so'rash uchun ishlatiladi.

Must not harakatni bajarayotgan kishini emas, o'sha faktlar, qoidalar yoki vaziyatni tanqid qilish.

You must not smoke so much

Siz ko'p chekishingiz mumkin emas.

2. harakatni, xolatni, voqeani amalga oshirishda ishonchsizlik:

- "You may think you're very old," he said, "but you strike me as extremely young." (Galsworthy)

Siz o'zingizni qari deb hisoblaysizmi,- dedi u,- lekin siz menga juda yosh ko'rinasiz.

She was and remains a riddle to me. She may and she may not prove to be a riddle to you. (Dreiser)

U men uchun har doim topishmoq bo'lgan va bo'lib qoladi. Balkim u siz uchun ham topishmoq bo'lib qolar balkim yo'q.

Bu yerda *may* ishonchsizlikga kuchli urg'u beryapti.

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, *may* o‘zbek tilidagi *balkim, imkoniyat bo‘lsa* so‘zlari orqali ifodalanyapti.

Sometimes when Mr. de Winter is away, and you feel lonely, you might like to come up to these rooms and sit here. (Du. Maurlier)

Vaqlar kelib Janob Verder ketib o‘zingizni yolg‘iz his qilsangiz, balkim shu honalarda dam olib qolgingiz kelar. Oxirgi misolda shuni ko‘rishimiz mumkinki, *might* ifodalayotgan ishonchsizlik ma‘nosi vaqtinchalik emas. Bu holatda *may* va *might* o‘rtasida u qadar katta bo‘lmagan farqni ko‘rishimiz mumkin.

Ba‘zan esa, *might may* ga qaraganda so‘zlovchining ishonchsizligini kuchliroq ifodalaydi.

Might may ning o‘rnida zamonlar moslashuvida foydalanadi.

That was like her — she had no foresight. Still — who knew? — she might be right. (Galsworthy)

Bu unga o‘xshayapti – u oldiga qarab o‘tira olmas edi. Kim bilar? – balkim u haqdir.

May infinitive ning barcha shakllari bilan ishonchsizlikni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

A Forsyte might perhaps still be living in that house, to guard it jealously. (Galsworthy)

Forsyte o‘sha uyni qo‘riqlab va qizg‘onib yashab turishi mumkin edi.

It was then that his voice grew tired and his speech impeded. The knowledge that he had entirely lost touch with his audience may have been the cause. (Greene)

Ayni o‘sha vaqtda uni ovozida charchoq eshitilib nutqi esa bo‘linar edi. Balkim, u butunlay auditoriya bilan aloqani uzgan edi bunga o‘sha fikr sabab edi.

How long the silence lasted the Gadfly could not tell; it might have been an instant, or an eternity. (Voynich)

For all I knew, she may have been waiting for hours

Bilganlarim shuki, balkim u soatlab kutayotgandir.

3. Vaziyatga bog‘liq bo‘lgan ehtimollik.

Bu holatda *may* faqatgina darak gaplarda foydalaniladi. *Can* ham bu holatda qoʻllanilishi mumkin.

In this museum you may see some interesting things

Siz muzeyda qiziqarli narsalarni koʻrishingiz mumkin.

You may see him every morning walking with his dog.

Uni siz har tongda iti bilan sayr qilib yurganini uchratishingiz mumkin.

Bu maʼnoda u odatda Indefinite Infinitive bilan ifodalanadi.

4. Oʻpkalash.

Bu vaziyatda faqatgina *might* ishlatiladi, *may* emas.

Might the Indefinite Infinitive bilan ishlatilganda, yuqorida misolda koʻrsatilganidek, soʻroq oʻpkalash ohangida yasaladi. Agar u the Perfect Infinitive bilan ifodalansa, oʻpkalash maʼnosini ifodalaydi.

I realize now how you spent your days and why you were so forgetful. You might have told me, you know. (Du Maurier)

Men endi tushundim, siz nima uchun shunday hayolparast ekanligingizni va nimaga shuncha kunlarni sarflaganligingizni. Bilasizmi, menga bu haqida aytishingiz mumkin ediku.

4. Must.

Must modal feʼlini faqat bitta shakli mavjud. *To have to* va *to be obliged to* jumalari, bir xil maʼnoga ega boʻlib, must ishlatilishi mumkin boʻlmagan zamonlarda qoʻllaniladi.

And now I must go back to my social duties. (Voynich)

Endi hozir men oʻz vazifamga qaytishim kerak.

I felt that I had to have the air. (De la Roche)

Men havoni almashtirishim kerak deb sezar edim.

Must majburiyatni, zaruriyatni, muhim buyruqlarni, oʻpkalashni, ishonchni ifodalaydi.

1. majburiyat, zaruriyat.

a) holatga bog'liq (bu ma'noda *must to have to* ga teng va u so'roq, inkor va darak gaplarda the Indefinite Infinitive bilan ifodalaniladi):

- He must write. He must earn money. (London)

U yozishi kerak. U pul topishi kerak.

The absence of necessity is expressed by need not:

Must I go there to-morrow?

Yes, you must.

No, you needn't.

Men u yerga ertaga borishim kerakmi?

Ha, borishingiz kerak.

Yo'q, shart emas.

b) insoniyat olamida vujudga kelgan va o'zgartirib bo'lmaydigan holatlar uchun:

-All experience tended to show that man must die. (Galsworthy)

Hamma tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlar olamdan o'tadi

2. buyruq, muhim so'roq yoki o'pkalash. Bu holatda u faqat the Indefinite Infinitive bilan ishlatiladi.

- You must leave the room at once!

Hozirni o'zidayoq honani tark etishingiz kerak!

You must come to see me every vacation. (Voynich)

Siz mendan har tatilda habar olishingiz kerak.

You must not speak to a prisoner in a foreign language, madam. (Voynich)

Siz mahbus bilan horijiy tillarda gaplashingiz mumkin emas, honim.

3. ehtimollik yoki taxmin.

Bu holatda *must* faqatgina darak gaplarda Infinitivning hamma shakllari bilan ishlatiladi. Agar holat hozirgi zamonni ifodalasa, the Indefinite Infinitive bilan; agar holat o'tgan zamonni nazarda tutsa, the Perfect Infinitive bilan ishlatiladi.

Surely, they don't want me for myself. Then they must want me for something else. (London)

Ishonamanki, men ularga o'zidan o'zi kerak emasman. Unda men ularga nimagadir kerakdurman.

Oh, Mae, think how he must be suffering! Poor man! (Webster)

O'ylayapsanmi, Meyi, u ham qiynalayotgan bo'lsa kerak. Bechoragina!!!

What a comfort you must have been to your blessed mother. (Dickens)

Sen mo'tabar onang uchun ancha upunchiq bolishing mumkin edi.

Is she still waiting? She must have been waiting for an hour.¹

U hali ham kutyaptimi? Bir soatdan beri u sizni kutayotgan bo'lishi kerak.

Inkor gaplarda gumon *evidently* modal so'zi orqali ifodalaniladi.

Evidently, she did not know my address

Haqiqatdan ham u meni manzilimi bilmasa kerak.

Kelasi zamondagi gumonni ifodalash uchun *must* dan foydalanmaydi. Uning o'rniga modal so'z *probably* yoki modal jumla *to be likely* ishlatiladi.

She is not likely to come so late.

U shunchalik kech kelarmikin.

She will probably come tomorrow.

Balkim u ertaga kelarmikin-a.

Should va ought.

Should aslida *shall* ning o'tgan zamon shakli lekin rivojlanishlar oqibatida u yangi ma'nolarga ega bo'ldi.

Should va *ought* modal fe'llari birgalikda talqin etiladi ular o'rtasida unchalik farq mavjud emas. Ularni bir biri bilan ham almashtirib qo'llashimiz mumkin.

I ought to have married; yes, I should have married long ago. (Pottsma)
Men uylanishim kerak, ha, men allaqchon uylangan bo'lishim kerak edi.

Bu konstruksiyada ozgina farq bor, modomiki, *should* to siz infinitive bilan ishlatilsa, *ought* doim to li infinitiveni talab qiladi.

Agar gap hozirgi yoki kelasi zamonni ifodalasa, the Indefinite Infinitive ishlatiladi.

In wartime a man should not part with his rifle. (Heym)

Urush vaqtida askar qurolidan ayrilmasligi kerak.

It's murder, and we ought to stop it. (London)

Bu qotillik, va biz uni to'htatishimiz kerak.

Agar gap o'tgan zamonni ifodalasa, Perfect Infinitive ishlatiladi.

"You should have been here last night when they brought back the DP's to the mines," said Yates. (Heym).

"Siz bu yerda kecha kechqurun bo'lishingiz kerak edi, ular DP'S koniga qaytgunga qadar" dedi Yates.

She ought to have known that the whole subject was too dangerous to discuss at night. (Galsworthy)

U bilish shart ediki, kechqurunda butun bir fanni muhokama qilish juda havfli edi.

I know that I was weak in yielding to my mother's will. I should not have done so. (London)

Men shuni bilamanki, onamning hohshini bajarishga ojiz edim. Men bunday qilishim kerak emas edi.

She had no nerves; he ought never to have married a woman eighteen years younger than himself. (Galsworthy)

Unga hech narsa ta'sir qilmas edi, u o'zidan o'n sakkiz yosh yoshroq ayolga hech qachon uylanmasligi kerak edi.

Should va ought Continuous Infinitive, Perfect Continuous Infinitive. bilan ham ishlatiladi.

You should be learning your lessons, Jack, and not talking with Mary

Siz Marry bilan gaplashmasdan darslaringizni o'qishingiz kerak, Jack.

You ought to be helping your mother with your salary and not squandering your money

Siz onangizga yordam berishingiz kerak, maoshingizni hamda to'plagan pullaringizni behuda sarflamasdan.

He should have been trying to break through the isolation the hospital had set around Thorpe, he should have been doing many things other than walking along the Seine quay. (Heym)

Sena bandargohida aylanib yurguncha, u shifohona jihozlagan izolyatsiya orqali o'tib, Thorpe atrofida, juda ko'p narsalar qilish kerak edi.

Should ham *ought* ham majburiyatni ifodalaydi.

1. Majburiyat ahloqiy majburiyat yoki vazifa. Bu holatda *ought should ga qaraganda ko'proq foydalaniladi..*

- Martin's hand instinctively closed on the piece of gold. In the same instant he knew he oughtn't to accept. (London).

Martinning hissiga tayanib tilla tangani qo'lida siqdi. O'sha onda uni olmaslik kerakligini tushunib etdi.

I promised her if ever the time came when she needed me, to be her friend. Promises of that sort should never be broken. (Meade)

Men unga va'da qilganman, qachondir vaqtlar kelib, unga men kerak bo'lsam, do'sti bolib qolaman. Bunday va'dalar ustidan chiqishi kerak.

Maslaxat.

Bu holatda *should ought* ga qaraganda ko'roq foydalanilad.

You should be more careful. (London)

Siz ehtiyotko'rroq bo'lishingiz kerak.

You ought to have Warmson to sleep in the house. (Galsworthy)

Uormson sizning uyingizda uhlashi uchun undashingiz kerak.

Kutilgan biror ish harakat.

It's the last of the Madeira I had from Mr. Jolyon... it ought to be in prime-condition still. (Galsworthy)

Bu Janob Joliyondan olingan maderaning ohirgi ichimligi, u haligacha yahshi holatda bo'lsa kerak.

If it's a story by Wodehouse it should be amusing.

Agarda bu Vudhausning hikoyasi bo'lsa, albatta qiziqarli bo'lishi kerak.

6. *To be* + Infinitive.

To be + Infinitive modal ifoda. Uning ba'zi ma'nolari modal fe'llar va majburiyatni ifodalovchi jumlarlar (*must, shall, should, ought, to have* + Infinitive) ga teng.

Bu modal jumlarlar 2 ta zamonda — hozirgi oddiy va o'tgan oddiy zamon (*was, were*).

Dear Jim, I am to be shot at sunrise tomorrow. (Voynich)

Azizim Jim, ertlab tongda men otuvga hukm qilingan bo'lishim kerak

They were to go to Spain for the honeymoon. (Galsworthy)

Ular Ispaniyaga asal oyini o'tkazish uchun borishlari kerak edi.

To be + Infinitive kuchsiz buyruq, kelishuv, ehtimollikni ifodalaydi.

1. bir kishi ikkinchi biri uchun kelishuv natijasini buyuradi, kelishuv muhokama qilinmaydi.

Bu holatda faqatgina the Indefinite Infinitive ishlatiladi.

You are to go straight to your room. You are to say nothing of this to anyone. (De la Roche)

Siz to'g'ri o'z honagizga borishingiz kerak. Siz bu haqida hech kimga gapirmasligizngiz kerak.

Schlaghammer frowned. It was not up to him to judge Pettinger... but it was in his province to interpret orders. He was to blast the entrances of the mine. (Heym).

Shlaghammer qovog'ini solib oldi. U pitengerni tergamasligi kerak, lekin buyruqlarni muhakama qilish va berish — uni haqi. U konni barcha yo'llarini portlatib yuborishi shart.

2. kelishuv yoki shartnoma.

Bu holatda ham the Indefinite va the Perfect Infinitive qo'llanilishi mumkin; the Perfect Infinitive hali bajarib bo'lmagan ish harakatni ifodalaydi.

I'm sorry, Major, we had an agreement — I was to do the questioning here. (Heym)

Kechirasiz, mayor, so'rovni men o'tkazishga, biz kelishganmiz.

We were to meet at the entrance of the theatre at a quarter to eight.

(mutual arrangement)

Soat o'n besh minut kam sakkizda biz teatrda kirish yo'lida ko'rishimiz kerak edi.

"Have you seen him?" Martini asked. "No, he was to have met me here the next morning." (Voynich)

"Siz uni ko'rdingizmi?" – so'radi Martini. "Yo'q, u meni ertaga tongda shu joyda kutib olishi kerak edi".

3. Ehtimollik.

Bu holatda agar savol so'roq ravishi how bilan boshlansa, the Infinitive passiv holatda bo'ladi. Bu yerda modal ifoda can ga yaqin ma'noda bo'ladi.

For a long time neither was to be seen about their old haunts. (Dreiser)

Uzoq vaqtlar ichida ularni har doimgi uchrashadigan joylarida hech kim ko'rmagan.

How are they to know that you are well connected if you do not show it by your costume? (Shaw)

Qanday ularni bilishlari kerak edi, sizlarning ko'pgina tanishlaringiz borligini, sizlarni kiyinishingiz saviyasi yuqori bo'lmasa?

And he knew that higher intellects than those of the Morse circle were to be found in the world. (London)

Va u bilar edi, yuqori saviyali insonlarni topish mumkin, Morzega tegishli va atrofida qilargalarga qaraganda.

4. Ilojsizlik.

- Sally wished Morris could be on the same terms of easy friendliness with her as he was with everybody else. But evidently, it was not to be. (Prichard)

Salli hohlar ediki, Morris har doim u bilan do'stona munosabatda bo'lishini, boshqalar bilan bo'lgan kabi. Lekin bunday bo'lishlik nasib qilmadi unga.

I went about brooding over my lot, wondering almost hourly what was to become of me. (Dreiser)

Men har doim taqdirim haqida o‘ylar edim, tinimsiz o‘zimga savol berar edim, kelajakda nima bo‘lar ekan men bilan.

Ba‘zan u if bog‘lovchisidan keyin ishlatiladi, bundauning ma‘nosi *to want* ga teng bo‘ladi

If we are to remain friends you must tell me the truth.

Agar biz do‘stligimizni saqlab qolishni istasak, siz menga haqiqatni aytishingiz kerak.

It should be borne in mind that the Uzbek questions ‘*Nima qilay?*’, ‘*Qanday qilay?*’ are rendered in English by the modal expression

What am I to do?

7. *To have* + Infinitive.

to have + Infinitive modal ifoda 3 ta zamonda qo‘llanilad: hozirgi oddiy, o‘tgan oddiy, kelasi oddiy zamonlarda

I have to get up at six every day. ^[15/132]

Har kuni men soat oltida turishim kerak (shart).

When water was rushing through the tents and everybody had *to sleep* in wet blankets, it was treated as a joke. (*Prichard*)

Suv palatka usti bo‘ylab suzib o‘tganda, hammamiz nam yopinchilqarda uxlashga majbur edik, bu kulgili tuyilar edi.

I shall have to take the pupils into the hills, as usual, and see them settled there. (*Voynich*)

Men odatda bolalarni olib adirga chiqib va ularni o‘sha erga joyilashganligini ko‘rishim kerak edi.

Inkor va so‘roq shakllari *do* yordamchi fe‘li bilan ifodalanadi.

Did you have to walk all the way home?

Uyingizga yayov borishingiz shartmidi?

I did not have to walk, I took a tram.

Men yayov borishim shart emas edi, tramvayda ketdim.

Faqatgina the Indefinite Infinitive Active va Passive bu modal jumla bilan qoʻllanilishi mumkin.

I had imagined we should have to hold a large house-party for the occasion. ^[15/132]

I wouldn't look through the letters — disappointment had to be postponed, hope kept alive as long as possible. (Greene)

Biz bunday marosim uchun katta uyini qoʻldan chiqarmasligim kerakligini tasavur qildim.

Men attang qilib qolmasligim uchun hatlarni koʻzdan kechirmasligim kerak edi , bu umid uzoq saqlanib qolishligi uchun.

Shall.

Shall xech qachon sof modal fe'l bo'lmagan. U doim kelajakni ifodalovchi yordamchi fe'l sifatida hosil bo'lgan.

U majburlash yoki buyruq, tahdid yoki ogohlantirish, va'da kabi ma'nolarni ifodalaydi.

1. majburlash yoki kuchli buyruq.

Bu ma'noda u odatda ikkinchi va uchinchi shaxslar bilan ishlatiladi va kuchli urg'u oladi.

Paula. I've got to tell Mr. Tanqueray.

Hugh. By God, you shall do nothing of the sort

Paula. Men janob Tenkeriga aytishim kerak.

Hugh. Olloh nomi bilan qasam ichamanki siz unday qilmaysiz.

-“She shall go off tomorrow, the little artful creature,” said Mrs. Sedley, with great energy. (Thackeray)

-“U tirrancha ertagayoq jo'nab ketadi”, - yuqori kayfiyatda Sedli xonim ma'lum qildi.

So'roq gaplarda *shall* 1- va 3- shaxslarga undalmalardan so'ng so'rashni ifodalaydi.

Shall I shut the door, madam? (Dickens)

(Do you want me to shut the door?)

- Xonim, eshikni yopib qo'yishimi hohlaysizmi?

- Shall he go there?

(Do you want him to go there?)

Uni o'sha joyiga borishini hohlaysizmi?

2. qo'rqitish yoki ogohlantirish.

Bu holatda u 2- va 3- shaxsda kichik urg'u bilan ifodalaniladi.

- "That's the last time!" she cried. "You shall never see me again!" (Maugham)

"Siz meni boshqa hech qachon ko'rmaysiz!" "Bu ohirgisi!" deb qichirdi u.

You shall repent of this neglect of duty, Mr. Gummer. (Dickens)

Janob Gammer, vazifanigizni bajarmayotganingiz sabali hali afsuslanasiz.

3. Va'da.

Bu holatda ham 2- va 3- shaxslar bilan qo'llaniladi va kuchsiz urg'u oladi.

Don't be afraid, Jane, I saw it was an accident. You shall not be punished. (Ch. Bronte)

Qo'rqma Jeyn, men buni to'satdan yuz berganini guvohi bo'ldim. Seni jazolashmaydi.

I shall make you happy, see if I don't. You shall do what you like, spend what you like. (Thackeray)

Mana ko'rasiz men sizni bahtli qilaman. Nima qilgingiz kelsa shuni qilasiz, qancha sarf kerak bo'lsa sarf qilasiz.

Will.

Will zo'rg'a sof modal fe'l bo'la oladi. U odatda kelajakni ifodalovchi yordamchi fe'l sifatida ishlatiladi.

Modal fe'l *will* expresses xoxishni, maqsadni, qat'iylikni ifodalaydi.

Xoxish, maqsad.

"What is this? Who is this? Turn this man out. Clear the office!" cried Mr. Fang. "I will speak," cried the man. "I will not be turned out..." (Dickens)

“Bu nima? U kim? O‘sha kimsani haydab yuboring. Honada hech kimsa qolmasin!” deb qichqirdi Janob Fang. “Yo‘q men baribir gapiraman!” – dedi bir kimsa. “Meni haydab yubora olmaysizlar!”

Besides, since happiness is irrevocably denied me, I have a right to get pleasure out of life: and I will get it, cost what it may. (E. Bronte)

Bundan tashqari, men uchun baxt nasib qilmas ekan, hayotdan lazzat olishga haqliman, va men ularga nima bo‘lganda ham erishaman.

Tell Mr. Osborne it is a cowardly letter, sir, a cowardly letter — I will not answer it. (Thackeray)

Janob Osbornega ayt, bu qo‘rqituvchi xat, janob, qo‘rqituvchi; unday bo‘lsa men javob bermayman.

Need.

Need zaruriyatni ifodalaydi. U ko‘proq inkor va so‘roq gaplarda ishlatiladi.

You needn’t be in such a fright. Take my arm. (Shaw)

Siz bunday qo‘rqmasligingiz kerak. Meni qo‘limni ushlab oling.

Need is odatiy fe‘l sifatida “biror narsani xoxlash” ma’nosida ishlatiladi.

He needs a new pair of shoes

Unga yangi bir juft tufli kerak.

Need faqat birgina - hozirgi zamon shakli mavjud. *Dare* kabi *need* nuqsonli fe‘l sifatida ishlatiladi; ikkinchisi so‘zlashuv tilida ko‘p foydalaniladi.

- One need to be careful

Har kim ehtiyotko‘r bo‘lishi kerak.

- He did not need to be told twice.

U ikki marotaba aytishi shart emas edi.

- Why need he bother us?

Nega endi uni shartlari bizni qiynashi kerak.

- I am here. You needn’t be afraid. (Greene)

Men shu yerdaman. Siz qo‘rqmasligingiz kerak.

I need hardly say I would do anything in the world to ensure Gwendolen's happiness. (Wilde)

Gwendolenning baxtini kafolatlash uchun hayotda nimalar qilmay faqatgina men bu haqda zo'rg'a gapira olaman.

Need ham the Indefinite ham with the Perfect Infinitive bilan qo'llaniladi.

I suppose I needn't have made that observation. (Pinero)

Ha, menga bunday tanbeh berish zaruriyat yo'q bo'lgan edikan.

3.2. O'zbek tilida modallikni ifodalovchi vositalar

O'zbek tilida modallikni ifodalash uchun grammatik vositalar – fe'l mayllari, shaxs –son qo'shimchalari, erkalash –kichraytirish qo'shimchalari, modal so'zlar muhim ahamiyatga ega. Quyida biz ularni modallikni qanday ifodalashini ko'rib chiqamiz.

A. Fe'l mayllari.

1) Ijro mayli. Harakat –holatning uning bajarilish vaqti bilan bog'liq holda ifodalaydi. Bu maylda harakatning bajarilishi –bajarilmasligi (ijrosi) tushunchasi mavjud bo'ladi.

Masalan:

Turg'unoy oxiri bosgan oyog'ini ko'tara olmay to'xtab, Mastonning yelkasiga boshini qo'ydi va piq – piq yig'ladi.

-Sonim toldi... o'ligim shu adirlarda qoladi... – dedi, keyin tizzasi bukildi – yu, yiqildi. (A.Qahhor).

b) -Senga o'xshagan laqmalarning boshini yeydi.(T.Malik).

v) Otingizga ozroq jo'xori berib qo'ydim.

g) -Homid akangga juda ham mehribon ekansan, Sodiq! – dedi Otabek.

Fe'lning bu mayli ish –harakat bajarilishini aniq sodir bo'lishi yoki sodir bo'lmasligini ko'rsatib kelishi bilan karakterlidir.

Ijro mayli aksar hollarda ob'ektiv modallikni ifodalaydi. Biroq, bu sub'ektiv munosabat bo'lmaydi, degan xulosa chiqarish uchun asos bo'lmaydi.

Masalan:

- Senga o'xshagan laqmalarning go'shtini yeydi. Misolda sub'ektiv modallik ham mavjud. Shuningdek, ya'ni sub'ektiv modallik ham ifodalanmoqda, biroq ana shu modal munosabat (laqmalarning go'shtini yemoq) leksik-semantik vositalar asosida ajralib turibdi. Bu misolda g'azab, nafratlanish, achinish, xatto ta'kidlash munosabati ifoda etilyapti. Ya'ni "u" - iflos odam, sendek laqmalarning go'shtini yeydi, deganimizda g'azab va nafratlanish munosabatini; "Laqmasanlarda, shuning uchun go'shtingni yeydi", deb olganimizda achinish munosabati; "U faqat sendek laqmalarninig go'shtini yeydi", - deb olganimizda ta'kidlash munosabati ifoda etilyapti. Muhimi bu o'rinda so'zlovchining ishonchlilik darajasi ifodlangan.

Endi birinchi misolni ko'rib o'tsak.

...piq- piq yig'ladi.

- Sonim toldi... o'ligim shu adrlarda qoladi... dedi, keyin tizzasi bukildi-yu, yiqildi. Misolda obyektiv modallik bilan bir qatorda sub'ektiv modallik ham sezilib turibdi. Bu yerda so'zlovchining o'z harakat-holatiga achinish munosabati ifoda etilyapti. Shuningdek, gap mazmuniga nisbatan xabardorlik darajasi aniq emasligi ko'rinyapti.

2) Buyruq istak mayli. So'zlovchining istagi bilan bog'liqlik holdagi undash, shu harakatga da'vat etish, qo'zg'atish ma'nosini ifodalaydi. Fe'lning bu mayli, asosan, noreal modallikni yuzaga chiqaradi.

a) Sotqayi bek ketsin, Aziz bachcha deng, - dedi Xomid. (A.Qodiriy)

b) Endi men uyimga chiqay, o'rischa ustalingda belim qotib qoldi.

(T.Malik)

c) Yaxshi. O'ylashib, tadbirlari bilan menga fikringizni men ham o'ylab ko'raman.

(A.Qodiriy)

d) Endi sen uylangi, bolam. (T.Malik)

e) Bundoq aqlsiz ishlarni ko'yaylik xotin, - deb muloyimona so'zlab ketdi.

(A.Qodiriy)

Fe'ning buyruq - istak mayli xam asosan ob'ektiv modallikni ifodalab kelsa ham, lekin sub'ektiv modallikni ifodalashdan holi emas. Quyidagi misollarga diqqat qilamiz:

f) Endi men uyimga chiqay, o'rischa ustalingda belim qotib qoldi.

(T.Malik)

Bu misolda so'zlovchining o'z harakat –holatidan qoniqmaslik munosabati yuzaga chiqayapti. Demak, so'zlovchining o'z uyi hozirgi o'tirgan uyidan yaxshi, o'tirgan "ustali" esa noqulay bo'lganligi sababli bildirgan fikridan leksik - semantik vositalar orqali sub'ektiv modallik ifodalanmoqda.

g) Sotqi bek ketsin, Aziz bachcha deng,- dedi Xomid. Bu misolda so'zlovchining fikri orqali mensimaslik, jirkanish, afsuslanish munosabatlari ifoda etilyapti.

3. Shart mayli. Boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakatni, payt va istak ma'nolarini ifodalaydi.

a) Gumoningizni ayting bo'lmasa!, - dedi ellikboshi tajang bo'lib, - kim olganini men bilmasam avliyo bo'lmasam! (A.Qahhor)

b) Qamchidan qom tomsa, yuzta xotin o'rtasida ham rohatlanib tiriklik qilolasan. (A.Qodiriy)

v) Oshni tashlab ketsangiz xafa bo'laman, qirqqa chidagan qirqqa chidagan qirq biriga ham chiday oladi. (A. Qodiriy)

Fe'ning bu mayli orqali ob'ektiv moddalik ifodalanishi bilan bir qatorda sub'ektiv modallik ham o'z ifodasini topadi.

Masalan.

- Gumoningizni ayting bo'lmasa!, - dedi ellikboshi tajang bo'lib, - kim kim olganini men bilmasam avliyo bo'lmasam! (A.Qahhor)

Misolda achchiqlanish, norozilik, mensimaslik munosabatlari mavjud. Misolni quyidagi shaklda ko'rib chiqsak, bu munisabatlar yanada aniqroq ko'rinadi.

- Gumoning bo'lsa ayt! Kim olganini men qaydan bilaman, men senga avliyomanmi! - deganimizda birinchi gapda ham achchiqlanish, xam norozilik, ikkinchi gapda esa

mensimaslik munosabatlari yuzaga chiqayapti. Lekin gapning asl holi va o'zgartirilgan holidagi ifoda planiga putur yetgani yo'q.

4) Maqsad mayli. Subyektning harakatni bajarish maqsadi ifodalanadi. Maksad mayli deganda biz fe'lining - moqchi bilan yasalgan formasini nazarda tutamiz. - moqchi formasi orqali ish - harakatning haqiqatdan ham sodir bo'lganligi emas, balki uning bajarilishi maqsad qilinganligi ifoda etiladi. Fe'lniig maqsad mayli gap mazmunining voqelikka munosabatini reallik jihatdan emas, noreallik jixatdan ifodalovchi vositadir.

Masalan:

a) - Qilgan gunohim uchun bir barmog'imni berdim, yana ikki ko'zimni bermoqchiman. (A.Qahhor)

b) Xamroyev hech qachon majlisga borgan emas, ammo fursati bo'lganda bir bormoqchi va bola tarbiyalashni bilmagan, yoki bu ishga sovuq qaragan o'qituvchilarni uyaltirmoqchi edi. (A.Qahhor)

v) Boqijon aka, - dedi qiz uyalibroq, - bir narsani so'ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning "Uyqu istagi"ni o'qidik, go'dakni o'ldirgan qizni sud qilmoqchimiz. (A.Qodiriy)

Maqsad mayli faqatgina ob'ektiv modallikii ifodalaydi, deyish noto'g'ridir. O'z o'rnida sub'ektiv modal munosabatni ham ifoda etadi. Masalan:

Xamroyev hech qachon majlisga borgan emas, ammo fursati bo'lganda bir bormoqchi va bola tarbiyaleshni bilmagan, yoki bu ishga sovuq qaragan o'qituvchilarni uyaltirmoqchi edi. Misolda gap mazmunidan ifodalangan voqelikka nisbatan taxmin, gumon ma'nosi anglanadi.

B. Shaxs - son qo'shimchalari.

1) Shaxs - son qo'shimchalari fe'lining aniqlik mayli formasiga qo'shilib, real modallikni ifoda etib keladi.

a)–Yo'q bek aka, - dedi Rahmat, - siz aniqlab bir kunni tayin qilingiz, biz bu yerga sizni taklif qilgali kelganmiz. (A.Qodiriy)

b)- Bu kun jo'namoqchi bo'lib turibman, - dedi Otabek.(A.Qodiriy)

- v) Juda soz bo‘pti - da, Xojim! Ko‘p yaxshi qilibsiz.(A.Qahhor)
- g) Hohlasangiz, O‘zbekiston ichida muxtor viloyat tashkil qilib etib beraylik deyishibdi.(T.Malik)
- d) Progul qilib bo‘shagan ekansan – ku.(A.Qahhor)
 - e) Ularga pastga tushishdi, maydondan o‘tib oqsoqolning uyiga qaytib kelishdi. (T.Pulatov)
- j) - Men o‘zimni o‘ldirmoqchiman, - dedi Zaynab hasta ovozda. (T.Malik)

Birinci misolda birinchi shaxs ko‘plik formasi orqali ob‘ektiv modallik ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi misolda birinchi shaxs birlik formasida sub‘ektiv modallik ifodalangan.

Yuqoridagi misollardan aniq bo‘ldi - ki, shaxs - son qo‘shimchalari vositasida ob‘ektiv modallik ifodalanadi. Shuningdek bu vositaga qo‘shimcha ravishda zamon va mayl formalari bilan birgalikda tasdiq, gumon, taxmin ma’noli sub‘ektiv modallik ham yuzaga chiqdi. Bunda intonatsion vositalar ham muhim o‘rin tutadi.

2) Shaxs - son qo‘shimchalari fe‘lning shart mayli formasiga qo‘shilib kelganda gapda ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati yoki sub‘yektning o‘z xarakatiga munosabati shartlilik ravishda yuzaga kelishini, ya’ni noreal modallikni ifoda etadi.

Masalan:

- a) Erkak bo‘lsangiz, meni o‘ldirasiz.(T.Malik)
 - b) Astag‘firullox! Tuxmat qilayotgan bo‘lsam kalomullo ursin!(T.Malik)
- v) -Yorilsang - chi! - dedi u jerkib, - mendan boshqa dardkashing bormi? (T.Malik)
- g) Mard yigit bo‘lsang, qo‘limni qo‘y!(A.Qodiriy)
 - d) Sodiq:
 - Biz qaysi kunga desangiz hozirmiz.
 - Mutal:
 - Menga qolsa, shu topda borsak deyman? (A.Qodiriy)

3) Shaxs - son qo'shimchalari fe'lining buyruq - istak formasiga qo'shib, harakat - holatni yuzaga kelishini aniq real ifoda etaydi. Ya'ni noreal modallikni ifoda etadi. Masalan:

a) Burgutni ushlay olmasangiz, loaqal kechalari u qayoqqa uchib ketishini poylab turing, - dedi Benishon. (T.Pulatov)

b) Ey-y-y, bek aka, bizning boshga tushkanni dushmaningizga ham ko'rsatmasin! (A.Qodiriy)

v) Lekin sizni nariroqqacha kuzatib, katta yo'lda keta qolay. (A.Qahhor)

g) Qani, yaxshilab tanishib olinglar - chi.

(A.Obidjon)

d) Qani, yursinlar, uni bir tanishtiray.

(A.Obidjon)

e) Misol tariqasida oxirgi taklifnomani bir ko'zdan kechiraylik.

(A.Obidjon)

V. E r k a l a s h - k i c h r a y t i r i s h q o ' s h i m c h a l a r i

Modallik erkalash - kichraytirish qo'shimchalari vositasida ham ifoda etiladi:

a) Turobjon, tugunchani orqasiga berkitib, tegishdi:

- Akajon, degin!

- Akajon! Jo - on aka!.. (A.Qahhor)

b) - Qanday qilay, o'rtoqjon, o'zimga qolsa shundoq bo'lsin debmanmi.

(A.Qahhor)

v)- Sho'rginam qursin... ko'rmaysizlarimi...Besh – olti yildan beri bitta paypok olib bergani yo'q-ku, ishlab - ishlab topgan pulimga qilgan hamma kiyimlarimga kerosin sepib o't qo'ydi... (A.Qahhor)

g)- E, e, yigitcha! Qani, bu yoqqa keling - chi! Xo' barakalla, mulla Suyar!

(A.Qahhor)

G. Modal so'zlar.

Modal so'z fikring chinligi, aniqligi, qat'iyligi yoki gumonli, chamali ekanligi kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi, shakl jihatdan o'zgarmaydi.

Modal soʻz gap boʻlagi vazifasida kelmaydi, gap boʻlaklari bilan sintaktik jihatdan bogʻlaniyadi ham: odatda butun gapga taalluqli boʻlib, kirish boʻlak vazifasida keladi. Modal soʻzlar semantik guruhlariga quyidagicha ajratiladi:

1) Gapda ifodalangan fikrning aniqligi, realligini tasdiqlovchi modal soʻzlar:

a)- Ochar edim! Albatta fosh qilar edim men shunday odamlarni

(A.Qahhor)

b) Orziqul bu gapni mehmonning koʻngli boʻlib aytmadi, rostdan ham Hojimirsirojnning bir kelishiga orzumand edi.

v) Darhaqiqat, domlanning fikr - yodi oʻzini iloji boricha yosh koʻrsatishda boʻlib qoldi. (A.Qahhor)

g) "Xarb ishi hiylasiz boʻlmas" deganidek, dushman, tabiiyki, hiylaga zoʻr berishi mumkin. (X.Zayniddin)

d)- Rahmat sizga va sizning toʻgʻri soʻzlaringizga.

Ulugʻ padari buzrukvor. Bu meni shaksiz dilsiyox etadir. (X.Zayniddin)

2) Gapda ifodalangan fikrga taxmin, gumon maʼno beruvchi modal soʻzlar:

a) Shofyor bundan kechroq xabardor boʻldi, shekilli, mashina qiriq- ellik qadam narida toʻxtadi. (A.Qahhor)

b) Cholni bunchalik istarasi issiq, dilkash qilgan, soqolidan tortib yurishigacha hamma narsasini, har bir harakatini chiroyli, yoqimli qilib koʻrsatgan, ehtimol, uning odamoxunligi boʻlsa. (A.Qahhor)

v) Puli koʻp odam balki shoʻrvani chindan ham changalida ushlab turishi mumkindir. (T.Malik)

g) Chamasi ikkimiz oʻtirganimizda, bekinib gapimizni eshitgan. (X.Noʻmon)

d) Xullas, ne boʻlgonda-da, sen meni toʻgʻri tushunishga harakat qil, har qalay yana hayotning oʻzi yoʻl koʻrsatar, bir kun kelub adolat oʻz qarorini topar, oʻgʻlonim!.. (X.Zayniddin)

e) Mirob juda koʻp narsani oʻylayapti chogʻi.(X.Noʻmon)

3) Gapda anglashilgan fikrga afsuslanish munosabatini bildiruvchi modal soʻzlar: afsus, afsuski, essiz, attang.a)- Hammadan uning qonatinini ayting: afsuski, ming afsuski, qoʻli ikkita - da, yoʻqsa eng chiroyli nasha chilimga oʻxshar edi. (A.Qahhor)

b) Esiz, taqdir ekan, qaydan bilimiiz,

Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz. (I.Sulton, Uygʻun)

v) Attang, bek ketib qolibdi - da. (A.Qodiriy)

4) Gapda ifodalangan fikr soʻzlovchining ajablanish, qoniqish munosabatini bildiruvchi modal soʻzlar: xayriyat, ajabo va boshqalar.

a) Xoji koridorga chiqib yiqilarmikan deb oʻylagan edim, yoʻq, xayriyat, gumbirlagan tovush eshitilmadi. (A.Qahhor)

b) Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qarasam... rangi boʻz boʻlib ketibdi. (A.Qahhor)

5) Gapdan anglashilgan fikrning tartibini bildiruvchi modal soʻzlar: avvalo, dastlab va boshqalar.

a) Ota - onang baravar chaqirsalar, avvalo, onangga javob qaytargin. (Xadisdan)

6) Fikrning xulosasini bildiruvchi modal soʻzlar: xullas, demak, umuman va boshqalar.

a) Biz bilamizki, har bir yangilik qarshilikka uchraydi. Demak, mexanizatsiya ham qarshilikka uchrashi kerak. (A.Qahhor)

b) Demak, tonggacha mugʻul qoʻshinlari qarshimizda bu tun saf tortishadur. (X.Zayniddin)

v) Xullas, ne boʻlgʻonda – da, sen meni toʻgʻri tushunishga harakat qil. (X.Zayniddin)

